

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI
VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Qo‘lyozma huquqida

Po`latova Dildora

Mahmud Toir she`riyati leksik xususiyatlari

Ixtisoslik: 5A 111201 -O‘zbek tili va adabiyoti

O‘zbek tili magistri darajasini olish uchun tayyorlangan

DISSERTATSINA

Ilmiy rahbar:

f.f.n. B.Zaripov

Navoiy-2014

Mundarija

Kirish.....8-11b

Asosiy qism:

I bob.Mahmud Toir she'riyatida ko'chma ma'noli so'zlarning
qo'llanilishi.....12-28 b

1.Metaforalar.....12-21 b

2.Metonimiyalar.....21-26 b

3.Sinekdoxalar.....26-27 b

4.Vazifadoshliklar.....28 b

II bob.Ijodkor ijodida so'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra
turlarining ifodalanishi.....29-48 b

1.Sinonimlar.....30-34 b

2.Antonimlar.....34-39 b

3.Omonimlar.....39-44 b

4.Paronimlar.....45-48 b

III bob.Mahmud Toir lirikasida o'z va o'zlashgan qatlam, eskirgan va
tarixiy so'zlarning ishlatilishi.....49-54 b

1.O'z va o'zlashgan qatlam.....55-58 b

2.Arxaik so'zlar.....58-61 b

3.Istorizmlar.....62-63 b

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....64-65 b

Kirish

O‘zbek tili qanchalar boy til. Undagi latiflik, joziba, o‘ziga xoslik tufayli durdona asarlar yaratilgan.

Til- millat kaliti. Zero xalq qalbiga yo‘l uning ona tilini bilish, madaniyati va an‘analarini hurmat qilishdan boshlanadi. Qadim bu ona zaminimiz ne kunlarni boshidan kechirmadi. Qonli urushlar, hisobsiz jang-u jadallar. Lekin shunda ham matonatli o‘zbek xalqi o‘z an‘ana va qadriyatlarini saqlab qolishga harakat qildi. Millat ruhi sanalmish ona tilimizni biz- avlodlarga meros qilib qoldirdi. Unda tarix pinhon. Zero yurtboshimiz Islom Karimov ta’kidlaganlaridek: “ ..o‘zlikni anglash, miliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - bu millatning ruhidir”¹.

“O‘z ona tilini bilmagan odam o‘zining shajarasini, o‘zining ildizini bilmaydigan kelajagi yo‘q odam, kishi tilini bilmaydigan odam uning dilini ham bilmaydi”².

O‘zbek tilining imkoniyatlari cheksiz. Undagi ma’no tovlanishlari, soflik, nafislik o‘z o‘rnida qo‘llanganda yuksak saviyali badiiy asarlar yaratilishiga zamin hozirlaydi. Ona tilimizning nechog‘li boyligini ko‘rsata olish esa “inson qalbining muhandislari” – shoir va yozuvchilarning mahoratiga bog‘liq.

O‘zbek adabiyotida o‘zining betakror misralari bilan qalblarni maftun etgan ijodkor Mahmud Toiridir. Mahmud Toir- hayot va muhabbat kuychisi. Shoir toshlar bilan tillashadimi, gullar bilan sirlashadimi, yorga izhori dil qiladimi, Momo yerni, ona vatanni madh etadimi, nima haqida gap bormasin, satrlarda tashbehtar tovlanadi. Ayni paytda shoir falsafasi sizni o‘ziga oshno etadi.

¹ Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent .2008.83-b.

² Karimov I. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent. 2011.70-b.

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbek adabiyotining otashnafas shoiri Mahmud Toirning hayot falsafasi aks etgan betakror lirikasida o‘ziga xos xususiyatlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoir she‘riyatining boshqalardan ajralib turadigan yorqin qirralardan biri uning lirikasidagi o‘ziga xoslik, nafis jozibasidadir. Bu nafislik, jozibadorlik shoirning so‘z qo‘llash mahorati natijasidir. O‘zbek tili leksikasi juda boy. Unda serqirra ma’noga ega bo‘lgan polisemantik so‘zlar, ma’nodosh so‘zlar, emotsional-ekspressiv bo‘yoqdor so‘zlar mavjud. Shuningdek, o‘zbek tili leksikasida eng asosiy va salmoqli o‘rinni egallagan umumnutq qatlam so‘zlari borki, ulardan o‘rni bilan ma’no qirralarni teran anglagan holda foydalanish lozim. Bu esa badiiy asarning tasirchanligini, jozibadorligini ta’minlaydi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, yaxshi badiiy asar yaratish shoirning so‘z qo‘llash mahoratiga bog‘liq.

Biz mazkur bitiruv malakaviy ishida shoir Mahmud Toir she‘riyatining leksik xususiyatlarini tahlil qildik. Bu esa mazkur bittiruv malakaviy ishining dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o‘rganilish darajasi. Tilshunoslikda Leksikologiya bo‘limi bo‘yicha dastlabki tadqiqotlar I.Rasulov, A.Shomahsudov, R.Qo‘nurovlar tomonidan olib borilgan bo‘lsa, keyinchalik M.Yo‘ldoshevning “Badiiy matnning lisoniy tahlili” va S.Karimovning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Ko‘rinadiki, Leksikologiya sohasida talaygina ishlar amalga oshirilgan. Bu borada ishlarning bevosita davomi sifatida biz o‘z ishimizda Mahmud Toir she‘riyatining leksik xususiyatlariga e’tibor qaratdik.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi Mahmud Toir she‘riyatining badiiy xususiyatlariga e’tibor qaratish, ijodkor she‘rlarini leksik xususiyatlarni tahlil qilishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirdik:

- Mahmud Toir ijodi bilan tanishish;
- Shoir she‘rlarida qo‘llangan ko‘chma ma’noli so‘zlarning ma’no xususiyatlarini izohlash;

- Soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turini aniqlash va izohlash;
- Chegaralangan qatlam soʻzlarinig qoʻllanilish darajasi va badiiy xususiyatlarini tahlil qilish;
- Tarixiy hamda eskirgan soʻzlarning qoʻllanilishi va ularning uslubiy xususiyatlarini yoritish;
- Oʻz va oʻzlashgan qatlam soʻzlarining qoʻllanish darajasini aniqlash.

Ishning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishining yangiligi shundan iboratki, mazkur bitiruv malakaviy ishda Mahmud Toir sheʼriyatinig leksik xususiyatlari tahlil qilib sharhlandi. Biz Mahmud Toirni ajoyib soʻz ustasi, mohir ijodkor ekanini yaxshi bilamiz. Koʻp tadqiqotlar ijodkor asarlarini oʻrganishga qaratilgan, ammo shoir ijodining til xususiyatlari yetarlicha tahlil qilinmagan.

Ishda Mahmud Toir tomonidan qoʻllanilgan juda koʻp xalqona leksemalar, sinonim soʻzlarning maʼno qirralari, antonim soʻzlarning badiiy xususiyatlari, koʻp maʼnoli soʻzlarning va maʼno koʻchirish turlarining goʻzal namunalari, chegaralangan soʻzlarning uslubiy xususiyatlari tahlil qilindiki, bu adibning mahoratini yanada kengroq targʻib etish imkonini beradi.

Bitiruv malakaviy ishining manblari. Tadqiqot vazifalari va tahlil uslubi taqozosiga koʻra ishda quyidagi asosiy manbalarga tayandik: leksikologiyaga doir ilmiy adabiyotlar, darslik, qoʻllanmalar, maqolalar hamda internet maʼlumotlaridan foydalandik. Shuningdek, shoirning quyidagi asarlari hamda lugʻatlar manba vazifasini oʻtadi:

1. Mahmud Toir. Mendan meni soʻrama. “Sharq” nashriyoti. Toshkent. 2007.
2. Mahhmud Toir. Saylanma. “Oʻqituvchi”. Toshkent. 2008.
3. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. V jild. Toshkent. 2006-2008.
4. Rahmatullayev Sh, Mamatov N, Shukurov R. Oʻzbek tili antonimlarning izohli lugʻati. “Oʻqituvchi”. Toshkent. 1989.
5. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati. “Oʻqituvchi”. Toshkent. 1984.

Ishning ilmiy ahamiyati. Mahmud Toir she'riyatining leksik xususiyatlarini bitiruv malakaviy ishi sifatida o'rganilayotganligi ishning ilmiy ahamiyatini tashkil etadi. Shoir ijodida leksik vositalar, ulardan foydalanishda ijodkor mahoratini yoritib berish bo'yicha qilingan tahlillarning mavjudligi va ularning ilmiy xulosalanganligi bitiruv malakaviy ishining ilmiy qimmatini oshiradi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, III bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi- 65 bet.

I bob:

**Mahmud Toir she'riyatida ko'chma ma'noli so'zlarning
qo'llanilishi**

Davr zamonning yangilanish ekinlari ostida she'riyat olamida bir guruh iste'dodli shoirlar oqimi kirib keldiki, ular adabiyotda yangicha bir yo'nalishni kashf etib botiniy tuyg'u, inson ruhiy olaminig tabiati va uning borliq bilan uyg'unligini o'zgacha bir ohongdorlik asosida namayon eta boshladilar. Sirojiddin Sayyid, Usmon Azim, Abduvali Qutbiddin, Dilshod Shams kabi shoirlar ijodida o'zlikni anglash, tabiiylikka intilish sifatlari yanada yorqinroq aks etganining guvohi bo'lamiz.

Ma'lumki, har qanday shoir o'z ona tilining ustasi sifatida uning imkoniyatlarini jilvalantiradi. Barcha leksemalar sehridan o'rinli foydalanish esa iste'dodli insonlargagina nasib etadi. Ana shunday shoirlardan biri she'riyat olamida o'ziga xos ovozi bilan tanilib borayotgan Mahmud Toiridir. Shoirning she'rlari haqiqiy ko'ngil she'rlaridir. Ular ortiqcha hayqiriq, jo'nliklardan yiroq. Ular osuda, ko'ngil uchun o'qilajak she'rlar. Ijodkor she'rlarida muhabbat tarannum etiladi: yorga, hayotga, Ona vatanga, erkka bo'lgan muhabbat. Mahmud Toir muhabbatni "quyoshning ham ko'zida yosh qoldirguvchi, toshga vafo kuyin chaldiruvchi (muhabbatga) tuyg'u"ga mengzaydi.

Bugungi chinakam asarlar o'quvchiga aql o'rgatishga, uning uchun "hayot qo'llanmasi" bo'lishga urinmaydi, buni da'vo ham qilmaydi. U ko'proq sezgi, tuyg'u hosil qilishga yo'naltirilgan. Buyuk so'z ustasi Abdulla Qahhor aytganidek: "Bilgan bilib qo'yaverishi mumkin. His qilgan his qilib qo'yavermaydi". Hozir bitilayotgan eng sara asarlarda kitobxonni ruhiy muvozanatdan chiqarish, o'yga toldirish, o'z tuyg'ularini tekshirishga, taftish qilishga odatlantirish xususiyatlari kuchli.

Mahmud Toir ijodi ham shu yo'nalishda ushbu bitiruv malakaviy ishda biz ijodkorning ona tilimizning imkoniyatlaridan nechog'li foydalana olish, so'z qo'llash mahorati bilan tanishamiz.

Leksik ma'no odatda bir predmet belgi, harakatning nomini boshqa bir predmet, belgi, harakatda ko'chiish yo'li bilan rivojlanadi. Bunday ko'chirishning tabiatini, mavqeyini har bir tilning o'zidagi semantik qonuniyatlar

belgilaydi. Ijodkor she'riyatda o'z ruhiy kechinmalarini yaqqolroq va aniqroq ochib berish uchun turli ma'no tovlanishlariga murojat qiladi. Tilda so'zning ko'chma ma'nolari hamda ularning narsa –voqelikka bo'lgan munosabatiga qarab lisoniy hodisalar quyidagicha nomlanadi:

1. Metafora
2. Metonimiya
3. Sinekdoxa
4. Vazifadoshlik.

Predmetlar, hodisalar orasidagi nisbiy o'xshashlik asosida birining ifodasi bo'lgan so'zni ikkinchisini ifodalash uchun qo'llash **metafora** deyiladi.

Predmet o'zining rangi, shakli harakati va shu kabi biror real belgisiga ko'ra boshqa shunday belgi mavjud bo'lgan predmet nomini oladi. Til hodisasi bo'lgan metafora Yevropa tillariga oid ba'zi adabiyotlarda, yuzaga keltirgan o'xshatish belgisiga ko'ra bir necha ko'rinishga ajratiladi. Bu hol nemis tiliga bog'ishlangan adabiyotlarda ko'proq uchraydi. Metaforalar bu asosda tasnif qilinsa, ular shuncha ko'p ko'rinishga ajratiladiki, uning sanog'ini aniqlab bo'lmaydi. Shuning uchun ham mazkur asos bilan turli ko'rinishga ajratib ko'rsatgan adabiyotlar aniq bir xil miqdor belgilay olmaganlar.

Badiiy adabiyotda metafora ifodaning obrazlariga erishish maqsadida predmetni boshqa bir predmetga o'xshatishdan, jonli o'xshatishdan iborat bo'ladi. Masalan, po'lat bilak, ishq o'ti. Badiiy adabiyotdagi metafora o'xshatishning qisqargan formasi bo'lib, u predmetning nomi bo'lish vazifasini bajarmaydi. Chunki bunda shu nutqiy parchada ilgari hech qachon anglatmagan predmet yoki hodisani anglatadi. Boshqacha aytganda xalq so'zni shu o'rinda qo'llanilgan ma'noda qo'llamaydi. Prof. L.I Timofeyev badiiy metaforaning ana shu xususiyatini ko'rsatib yozadi: "Metaforada... o'xshashlikka yoki zidlikka ko'ra real (voqea) aloqa va bog'liqlikka ega bo'lmagan asosiy va qo'shimcha ma'nolar kesishgan bo'ladi".³ Metafora haqida olimlar turlicha fikr yuritadilar.

³ Usmonov S. Metafora. "O'zbek tili va adabiyoti". Toshkent. 1964/4 34-35-betlar.

Til hodisasi sifatida metaforalar yuqorida qayd etilganidan tashqari asosda ko‘rinishga ajratilgancho yo‘q. Nutq hodisasiga oid metaforalar esa nemis tilining kichik ensiklopediyasida ko‘rinishga ajratilgan. Unda personifikatsiya, simbolizatsiya, allegoriya, senesteziyalar berilib, ular metaforaning ko‘rinishi deb qayd etilgan. Shundan kelib chiqib til hodisasi bo‘lgan metaforalar quyidagi ko‘rinishlarga bo‘ladi:

1. Oddiy metofoara
2. Personifikatsiya
3. Sinesteziya⁴

She‘riyatda esa badiiy metaforadan unumli foydalaniladi. Metafora usulida ma‘no ko‘chishini izohlash uchun komponent tahlil usulining ahamiyati juda muhimdir. Bu leksemalar tarkibini semalarga bo‘lib o‘rganish usuli bo‘lib, metafora hodisasini izohlashda muhim rol o‘ynaydi.

Metafora hosil qiluvchi lisoniy qonuniyatlar quyidagicha:

Leksema ma‘noviy tuzilishidagi ayrim semalarni tushirib, tushirilgan semalar hisobidan boshqalarni bo‘rttirish imkoniyati. Buning usuli – leksemaning sintagmatik qo‘shnichilik munosabatlarini buzish.

So‘zning ma‘no tuzilishida atash semalari va ifoda semalari mavjud. Metaforik ma‘no atash semalari va qo‘shimcha ma‘no semalari asosida yaratiladi.

Mahmud Toir ijodini kuzatar ekanmiz, beixtiyor undagi xalqona ohang, go‘zal tasvirlar ummoniga g‘arq bo‘lamiz. Quyidagi satrlarda ham lingvistik metaforaning ajoyib namunalari yaratilgan:

1. Bir **shirin tushlar** bo‘lib kulayin ko‘zingizda,
Muhabbat shevasida olovman so‘zingizda⁵
(“Yurmayin yetgim kelar”. 160-b.)

⁴ Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. Toshkent. 2010. 96-97-betlar

⁵ Mahmud Toir. Saylanma. I jild. Toshkent 2008

Shoir ta'kidicha,"oshiq shirin tush bo'lib yor ko'zida quvonch ko'rmoqchi". Ijodkor bu tasvirni yaratish ekan, "*shirin tush*" birikmasi qo'llaganki,bunda shirin so'zdagi "*ta`m*" semasi chetlashib uning o'rnini "*yoqimli*" yo'ldosh semasi egallashi natijasida shirin so'zi ko'chma ma'noda metaforik usulda qo'llanilgan.

2. **To'g'ri so'z** to'qmog'ini joningga boylab yurgin,
O'zbekning udumini qoningga boylab yurgin.

(“Yurgin” 19-bet)

Bunda “to'g'ri so'z” lingvistik metaforadir.To'g'ri (bosh ma'noda)-“egri emas,qing'ir yeri yo'q; tik, adl” ma'nosini ifodalaydi.Bu leksemada “*egri emas, qing'ir emas,sath*” semalari bor.

2.To'g'ri. “xatodan xoli,noto'g'ri yeri yo'q,bexato” ma'nolarini ifodalaydi.Bosh ma'nodan shu ma'no o'sib chiqqan.*To'g'ri fikr,to'g'ri maslahat* kabi birikmalarda bosh ma'noga nisbiy o'xshatish asosida qo'llanadi.

3.Fikr (ko'chma) “haqiqatdan iborat; chin, rost”ma'nosi qo'llanadi.To'g'ri so'z,to'g'ri hukm kabi birikuvlarda shu ma'nolarda keladi.Bunda bosh ma'noga nisbiy o'xshatish asosida metaforik usulda ko'chirilgan.

Lingvistik metaforaning shunday ko'rinishi borki,unda biror predmetga xos harakatning nomi boshqa bir predmetga ko'chiriladi:

- 3.Savob bilan yorug'dir gardun,
Duo bilan **ko'karar** farzand.

(“Ezgulik” 105-b.)

1. Maysalar ko'kardi birikuvida “ko'karmoq” so'zi o'z ma'nosida qo'llangan. Ko'karmoq aslida o'simlikka xos harakatni, ya'ni, “*unib-o'smoq, ko'klamoq barglar bilan qoplanib, yashil tusga kirmoq*”ma'nosini ifodalaydi.

2. Ko'karmoq so'zi insonga nisbatan qo'llanganda ko'chma ma'noda qo'llanib,

“rivoj topmoq,o'smoq” ma'nolarini ifodalaydi.

Bu o‘rinda “ko‘karmoq” so‘zinig birinchi ma’nosidagi “unib-o‘smoq” semasi ko‘karmoq so‘zining ikkinchi ma’nosi yuzaga kelishida asos bo‘lgan hamda boshqa semalar kuchsizlanib “rivoj topmoq,o‘smoq” semasi kuchaytirilgan.

4. Bir o‘lmoq bor o‘lmay qolganga,

Osmon bugun past keldi, ustoz,

Ketganingiz rost keldi, ustoz.

(“Oriyat ustuni edi” 17-b.)

Yo‘q, sen o‘lganing yo‘q butkul,shoirim,

O‘zbek olib yurar joniga qo‘shib,

Qandoq **ketib** qolding, Muhammad Yusuf.

(“Iztirob” 66-b.)

Yuqoridagi misollarda “ketmoq” so‘zi ko‘chma ma’noda qo‘llangan bo‘lib, “olamdan o‘tmoq, o‘lmoq ” semasini ifodalamoqda.Bunday ko‘chma ma’noning hosil bo‘lishida “ketmoq” so‘zinig bosh ma’nosi: “o‘z turgan joyini tark etmoq” asos bo‘lgan.

5. Tongda eshik ochgan qo‘shning,

Qoqilishing so‘rab tursa.

(“Yashash shirin” 67-b.)

Qoqilmoq so‘zining bosh ma’nosi: “*biror narsaga oyoqni urib, munkimoq, yiqilayozmoq*”. Qoqilishing so‘rab tursa birikuvida hosila ma’no: yanglishmoq, xato qilmoq. Chunki kishi qoqilgan (birir narsaga oyog’ini urib yiqilayozgan)dagi harakat-holati bilan xato qilgandagi harakat- holati o‘zaro o‘xshashligi bu o‘rinda metafora yo‘li bilan ma’no ko‘chishini hosil qilgan.

6. Biz nimadan to‘yganmiz,

Bizlar kimdan **kuyganmiz**.

(“Fikri ojiz” 60-b.)

1) kuymoq so‘zining bosh ma’nosi: “alanga chiqarmoq, yonmoq”. Masalan: cho‘g’ ustiga tushgan qog’oz parchalari sekin tutab kuyayotgan edi.

2) kuymoq - “yonib ishdan chiqmoq”. Yong’in tufayli hamma narsa kuyib kul bo‘ldi.

3) kuymoq soʻzining 3-maʼnosi bu soʻzning ikkinchi maʼnosidan oʻsib chiqqan: “biror kimsa yoki narsadan zarar-ziyon koʻrmoq, aziyatchekmoq”.

7.Gʻamlar ota koʻksini tildi,

Tirnogʻidan tirqiradi qon,

Opalar sochin yuldi,

Singlisidan topolmay nishon

(“Oqib ketgan armonlar” 241-b)

Shoir ushbu misralarida yolgʻiz oʻgʻlidan juda boʻlgan ota holatini tasvirlaydi. Ota shu qadar qaygʻuga chumganki, goʻyo bu alam koʻksini tilayotgandek. Gʻam “*qaygʻu-hasrat, alam yoki ruhiy azob, iztirob*” demakdir. “Gʻam” mavhum maʼnoli soʻz bilan “tilmoq (bosh maʼnosi: *Shu kabi narsalar bilan uzunasiga qirqmoq, yormoq*)” soʻzining birikuvi natijasida “tilmoq” soʻzi koʻchma maʼno kasb etgan. Bu satrlarda “gʻam” ga nisbatan qoʻllanilib, ruhiy iztirob holatini yanada kuchliroq ifodalashga xizmat qilgan. Shoir ijodida poetik metaforaning eng yaxshi namunalarini koʻrishimiz mumkin:

1. Sening **kulgularing** lola **qizgʻaldoq**,

Qirlarda kuliblar yotarlar

Mening **qaygʻularim** lola **qizgʻaldoq** ,

Qirlarda qoniga botarlar.

(“Sening kulgularing” 37-bet)

Shoirning mahorati shundaki, u bir soʻzni turli maʼnolarda qoʻllash orqali fikrning taʼsirchanligini oshirib, bir soʻzning maʼno qirralarini ochib shu soʻzdan mahorat bilan foydalangan. Yorning kulgusi ham, oshiqning qaygʻusi ham lolaqizgʻoldoqqa oʻxshatilgan. Nega? Bunda shoir yor kulgusini lolaqizgʻaldoqning ochilib ochilib turgan tashqi holatiga qiyoslagan boʻlsa, oshiq

qayg'usini tasvirlayotganda esa "*rang*" semasi kuchaytirilganing guvohi bo'lamiz. Bu orqali poetik tasvirning badiiyligi oshgan.

2. Ko'ngil olmaganim, ko'kda **hilolim**,
Ming bora kechirgan mening malolim
Onam, nuridiydam, **mehri zilolim**
Tangrining tuhfasini emasmi ayol?!
(“Ayol” 133-b)

Ushbu parchada shoir ayolni yangi chiqqan oyga qiyoslab, "**hilolim**" deydi. Keyingi misralarda esa onani "**mehr zilolim**" deya ta'riflaydi. Bu o'rinda ham "zilol" metaforik ma'noda qo'llangan.

Zilol aslida "*nihoyat darajada tiniq, shaffof*" ma'nosini ifodalaydi. Bunda Shoir beqiyos ona mehrini "mehri zilol" deya ta'riflash bilan poetik metofoaning go'zal namunasini yaratgan.

Mahmud Toirning ijodini kuzatar ekanmiz, har bir so'z ko'z oldimizda jonlangadek bo'ladi. Shubhasiz bu shoir ijodining betakrorligi, badiiy mahoratning yuksakligidan dalolatdir. Shuningdek Mahmud Toir ijodida personifikatsion metaforalar ham uchraydi.

Personifikatsion (jonlantirish, mumtoz adabiyotda tashxis) ma'lum so'zning lesik ma'nosini ifoda etgan jonli ob'ekt o'ziga qiyoslab o'xshatilib qaralgan jonsiz ob'ektini nomdosh qilib olishga aytiladi⁶

Metaforaning bu turi haqida J. Lapasovning "Badiiy matn va lisoniy tahlil" kitobida ko'rsatib o'tilgan.

Jonlantirish usuli metaforaning bir turi sifatida og'zaki nutqda va badiiy matnlarda ham qadimlardan qo'llanib keladi va unda insonga xos xususiyat, qobilyat hayvon, jonsiz, narsalar va tabiat hodisalariga mujassamlashtiriladi, aniqroq qilib aytganda unga insonlarga xos so'zlash, fikrlash his qilish xususiyatlari singdiriladi.⁷

⁶ Suvonova R. Metaforalar tasnifiga doir. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. Toshkent 2010/6

⁷ Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. Toshkent 1995. 38-bet.

Mahmud Toir ijodini kuzatar ekanmiz,shoir metaforaning bu turidan unumli foydalanganining guvohi bo‘lamiz:

Uzulgan gul uvolga esgan **samo vido aytar**,
Gurkiragan **rayhon hidi**, gulim sizga **sano aytar**

(“Kuygim kelar” 142-bet)

Personifikatsiya kengaygan metaforalarga xos bo‘lib,unda asosan,tobe bo‘lak metaforik ma’noda qo‘llanadi.Jumladan,

- 1 Sabo vido aytar
- 2 Rayhon isi sano artar

“Vido aytmoq” , “Sano aytmoq” fillari insonga xos nutq fe’llari hisoblanadi.Bunda vido aytmoq harakati saboga,sano aytish esa rayhon hidiga nisbatan qo‘llanilgan va jonlantirish asosida juda chiroyli tasvir yaratilishiga erishilgan.

Namanganning osmonida **oy yig’lar**,
Ne zamonkim,gadoyyig’lar,boy yig’lar,
Mashrab ohi qulog’imga yetganmu,
Ko’kda turib hattoki **Humoy yig’lar**

(“Mashrab” 13-bet)

Personifikatsiya tasvir badiiyligini oshirishga,uni yanada bo‘rttiribroq ko‘rsatishga xizmat qiladi.Mahmud Toirning “Mashrab” she’rida junun ishq sohibi Mashrab shunday nola chekadiki, bu holda hatto ko’kdagi oy ham,baxt qushi Humo ham befarq boqolmaydilar va ular ham ko’z yosh tikadilr.

U o‘rinda oy yig’lar, humoy yig’lar birikivudagi “yig’lar” so‘zi metaforik ma’no kasb etkan.

Kunduz **kulib turgan bobo quyoshim,**
Tunda sham chirog’im, oyim, yo‘ldoshim,
Malomat toshida qolgan bu boshim,
Men sizga omonlik tilayman

(“Omonlik tilayman” 12bet)

Yuqoridagi misralarga e’tibor bering-a “kulib turgan bobo qiyoshim” . Aslida kulmoq- *“insonning o‘z xursandchiligini yo zavqini kulgu bilan ifodalash”* ma’nosini anglatadi. Bunda quyoshning jonlantirilish asosida betakror metafora yaratilishiga erishilgan.

Soylar toshini **suvlar silarmish,**
Atirgul tikanga **umr tilarmish.**

(“Bemor bolalarni yig’latmang aslo” 73-bet)

Ushbu misralarga e’tibor bering. Bu yerdagi “silamoq” aslida *“ustidan kaft bilan yurguzmoq, siypab, erkalamoq,”* tilamoq esa *“biror kishiga ezgu istak bildirmoq”* degan ma’noni anglatadi. Bu o‘rinda esa toshlarni suvning silashi, atirgulning tikanga umr tilashi orqali kuchma ma’noda qo‘llanilgan va go‘zal tasvir yaratilgan Mahmud Toir she’riyatda ajoyib so‘zlarni metaforik ma’noda qo‘llash bilan satrlar sayqal topgan, go‘zallashgan.

Metonimiya

Bir narsa belgi-harakatning nomi boshqa bir narsaga o‘xshashlik asosida emas, balki o‘zora bog‘liqlik asosida ko‘chirilishi metonimiya yo‘li bilan ko‘chirish deyiladi. Metonimiya yunoncha so‘z bo‘lib, “qayta nomlash demakdir”. Metonimiya hodisasi ham so‘zlarning ko‘chma ma’nosi bilan bog‘liq. Ammo bu yerda asosan, birir narsa yoki voqea- hodisalarning nomi boshqa bir narsa yoki hodisaga ko‘chiriladi. Bu predmet yoki voqea –hodisa

ongimizda bir-biri bilan aloqador tushunchalarni anglatishi bilan o‘zora bog‘langan bo‘ladi. Metaforada bir-biriga o‘xshash predmetlarning belgilari ko‘chirilsa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko‘rinishi yo ichki xususiyatlari bilan bir-biriga aloqasi bo‘lsa ham, ammo umuman bir-biridan farq qiluvchi predmetlarning belgilari chog‘ishtiriladi. Masalan, Navoiy asarlarini o‘qidim deyish o‘rniga Navoiyni o‘qidim deymiz, auditoriyadagi talabalar kuldi deyish o‘rniga auditoriya kuldi deymiz.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki metonimiyada ham metaforadagi kabi ikki a‘zodan bittasi tushib qoldiriladi.

Metonimiyani aniqlashda so‘zning o‘zlashganligini e‘tibordan qochirmaslik kerak. Agar bu nazarda tutilmasa, o‘zlashtiruvchi tilda metonimiya bor yo yo‘qligi noto‘g‘ri belgilab qo‘yishi mumkin. Masalan, T. Aliqulov o‘zining nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferatida amper, rentgen, volt so‘zlarida metonimiya sodir bo‘lgan deb ko‘rsatadi. Chunki bu so‘zlar tilda terminlar sifatida majud. Ularning har biri kishi nomidan olingan. Ular atoqli otlarda sodir bo‘lgan metonimdir.⁸

Haqiqatdan ham mazkur atoqli otlar metonimiyaga uchragandan so‘ng ularning shu ko‘chma ma‘nosi bilangina o‘zbek tiliga o‘zlashtirilgan. Ularning kishi nomini bildiruvchi xususiy ifodaga ega bo‘lgan ma‘nolari esa o‘zlashtirilmagan. Kishi nomlari metonimiyaga uchrashi va bu polisemantik so‘zni tarkib topishi ham mumkin. Bu ham M. Mirtojiyning avtoreferatida qayd etilgan

Buning uchun *Yusupov, Rizamat* so‘zlaridagi metonimiyani misol tariqasida keltirilgan. Haqiqatdan ham o‘zbek tili uchun bu so‘zlarda metonimiya deb qaralishi lozim. O‘zbek tilida shunday kishi nomlari bor va ular nomi ixtiro nomiga berilgan.

Rizamat-uzum navini, Yusupov-pomidor navini bildiradi. Umuman ixtiro anglatuvchi hosila ma‘no bergan shaxs nomlari, agar u muayyan bir tilda

⁸ Qarang. Aliqulov T. Metonimiya va polisemiya. Toshkent. 1965. 23-b. Tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlar.

O‘zR FA TAI to‘p. 6-ktb. Toshkent, 1965, 23-b

bo'lsa, metonimiyaga uchragan va polisemantik so'zni tarkib toptirgan deb qaralishi kerak. Ixtirolarni atoqli otlar bilan atash orqali sodir bo'ladigan metonimiyalar o'zbek tilida o'zlashtirilgan ekan, ularga 2 xil yondashishga to'g'ri keladi: 1) shaxs bildiruvchi otlardagi metonimiyalar o'zbek tilida o'z aksini topmaydi va bu so'zlar faqat hosila ma'no bilan o'zlashadi, 2) joy bildiruvchi otlardagi metonimiyalar o'zbek tilida o'z aksini topadi va u distonimiya deb qaraladi.

Metonimiyaning o'zbek tilida o'zlashma so'zlar bilan kirib kelishi faqat til faktidagina kuzatiladi. Nutq jarayonida uni kuzatish mumkin emas. Chunki qaysi tildagi so'zda nutqiy metonimiya sodir bo'lar ekan, o'sha tilda, o'sha nutqdagina ko'rinadi. Keyin o'z qimmatini yo'qotadi.⁹

Metonimiyani olimlar turlicha tasnif etadilar. Professor M. Mirtojiyev metonimiyani tasnif etishda ma'no xususiyatiga asoslanish lozimligini ta'kidlab uni 2 ga ajratadi:

1. *Leksik ma'noda asoslangan metonimiya*
2. *Xususiy ma'noga asoslangan metonimiya*

Umumlashgan leksik ma'noga asoslangan metonimiya lug'aviy birlik sifatida so'z tarkibida aks etuvchi leksik ma'noga asoslanib sodir bo'luvchi metonimiyadir. Ularga hosil qiluvchi va hosila ma'nolar bir-biridan farqli sema bilan ajralib umumiy sema bilan o'zora tutashib turadi. Xususiy leksik ma'noga asoslangan metonimiya atoqli otlarning turdosh otlarga o'tish natijasida bo'ladi. Metonimiyaning bu ko'rinishini ko'pgina tilshunoslar hosila ma'no yuzaga kelishining metafora, metonimiya, sinekdoxolar qatoridagi ko'rinishlaridan biri deb qayd etadilar. Ingliz tili mutaxasisi N. Rayevska metonimiyani sodir etuvchi hodisalardan biri ma'noning abstraksiyalanishi deb talqin etadi. Shuni unutmaslik kerakki, bunda ham hosil qiluvchi va hosila

⁹ Suvonova R. So'z o'zlashtirish va metonimiya.
"O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. T.: 200/ 6 49-50- bet.

ma'nolar referentlari o'rtasidagi aloqadorlik turadi. Bu metonimiyaga xos xususiyatdir.¹⁰

She'riyatda ham metonimiyadan unumli foydalaniladi, buni biz Mahmud Toir ijodi misolida ko'rishimiz mumkin.

O'zingniki o'zagingni kessa yomon,
Bizlar kabi gunoh qilsa agar har jon.
Oh gunohkor bo'lmas edi **O'zbekiston**
Kimlar keldi, bu kun mana gunohsizman.

(“Qodiriyning so'nggi so'zi” 20-bet.)

Yuqoridagi misralarda O'zbekiston davlat, hududini emas, balki uning xalqiga ishora qilib kelmoqda va bu yerda yashovchi kishilarga nisbatan qo'llanilgan. Quyidagi misralarga e'tibor bering-a:

Ona til erk olsa, Ona yer titrab,
Sizni voqif etsa baxtkim bir ajab.
Turibsiz tushimda quvonchdan yig'lab,
Sizni yo'qlar ko'ngil, Mirtemir bobo

(“Sizni yo'qlab keldim” 15-bet)

Misralardagi “*Ona til*” birikmasidagi “til” so'zi metonimik ma'noda qo'llanilgan, ya'ni, til nutq azosi emas, balki “*fikr ifodalash va o'zora aloqa quroli bo'lib xizmat qiladigan tavushlar, so'zlar, grammatik vositalar sestemasi*”ga nisbatan qo'llanilgan. Bu o'rinda predmetning nomi shu predmet hosilasiga nisbatan qo'llanilgan.

Yuraklar bir-biriga talpinar zordir,
O'rtada yig'lagan duyonat, order
Bo'zlab yaratgandan so'rorim border,

¹⁰ Mirtojiev M. O'zbek tili semasiologiyasi Toshkent. 2010. 102-bet

Biz nechun uchrashdik **qirqdan** oshganda.

(“Biz nechun uchrashdik”40-bet)

Bu o‘rinda qirq so‘zidagi aniqlanmish tushirilgan bo‘lib, “*qirq yosh*” birikmasi o‘rnida qo‘llanilgan. Bunday misollar Mahmud Toir ijodida talaygina, masalan,

Oltmishsiz yetmishsiz yetib bo‘lmaydi,

Saksonsiz to‘qsonni tutib bo‘lmaydi.

Ellikda baxtiyor bo‘lgan, do‘stlarim,

Yuz yoshsiz dunyoga o‘tib bo‘lmaydi.

(“E‘zoz”194-bet)

Mahmud Toir ijodida nafaqat, nazmda, balki nasirda ham matonimiyadan unumli foydalangan:

Bu shum xabar Parkentning Jo‘nqishloq mahalla ahliga bir zumda tarqaldi:

-Hoy eshitdingizmi, o‘qituvchi Sobirjon bor-ki, o‘shaning katta o‘g‘li **Afg’onda** qazo qilibdi.

(“Faryod”. 25-bet.)

Afg‘on asli “Afg‘onnistonning tub aholisini tashkil etuvchi xalq, millat nomi”.

Millat nomini ular yashaydigan joy nomiga nisbatan qo‘llash bilan metonimiya hosil qilingan.

Shukrkim haq o‘zi elini topdi,

Cho‘lpon, Fitratlar elini topdi.

O‘zbegin yo‘qotgan yo‘lini topdi,

Sizni qutlar ko‘ngil Mirtemir bobo.

(“Sizni yo‘qlab keldim”. 15-bet.)

Ushbu misralarda shoir Cho‘lpon, Fitratlar deya aynan ularni emas, balki ular kabi qatag‘onga uchrab halok bo‘lgan millatimizning asl farzandlarini nazarda tutgan.

Bedil bulog'idan bir qultum ichdim,
Men uni senga ham tutaman do'stim
So'zning saltanati samoda ekan,
Zulmat aro go'yo quyoshni ko'rdim.

(“To'rtlik”.291-bet)

Bu misralarda esa shoir Bedil-(shaxs) ni emas balki uning asarlarini, metonimiyasini hosil qilgan.

So'zlarni metonimik ma'noda qo'llash ma'lum bir birikmaga aloqador tushunchalar bir so'z bilan ifodalanadi. Buning natijasida shaklda ixchamlik, semantik jihatdan esa keng qamrovlikni ko'rish mumkin.

Sinekdoxa

Sinekdoxa – grekcha “sunekdoche” so'zidan olingan. U predmetning soni bilan bog'liq bo'ladi, ya'ni, predmetning son son jihatdan birining ma'nosi ikkinchisiga ko'chiriladi. Ya'ni, bu ko'chim turida butun qism aloqasi asosida ma'no ko'chadi.¹¹

Sinekdoxa hosila mano yuzaga kelishi hodisalarining o'zbek tilida uncha keng tarqalmagan ko'rinishlaridan biridir. Tilshunoslikda qayd etilishicha, so'zning hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlaridan biri butunini, ikkinchisi bo'lagini bildirishiga ko'ra hosila ma'no yuzaga keltirishidir. Ma'lumki, uni ayrim adabiyotlarda metomiyaning bir ko'rinishi sifatida qayd etadilar. Bilamizki, metomiyada hosil qiluvchi ma'no referenti bilan hosila ma'no referenti o'rtasida aloqadorlik yotadi. Sinekdoxada so'zning hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlaridan biri butun, ikkinchisi bo'lak bo'lishdek munosabat bor. Ularning hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlari o'rtasidagi munosabat tomoman boshqacha.

Sinekdoxalarni hosila ma'no yuzaga yuzaga kelishining alohida bir ko'rinishi sifatida tilga olinishining gumon ostida bo'lishi va uning kam tarqalganligi biror mutaxassisning tasnif qilib ko'rmaganligi uchun sabab bo'lgandir. Faqat A.A.Reformatskiy tilshunoslikka kirishga bag'ishlangan

¹¹ Shomaqsudov A, Rasulov I, Qo'ng'urov R, Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent. 1983. 238-b.

kitobida bu hodisani uch ko‘rinishga bo‘lib ko‘rsatadi. Shunda ham hosil qiluvchi va hosila manolar referenti semantikasi munosabatini asos qilib oladi. Yana unda sinekdaxalarni ko‘rinishga **ajratish** uchun tanlangan yo‘l oxiriga yetmay qolgan. Buninig ustiga bu yo‘l sinekdoxalar tasnifi uchun emas, sodir bo‘lish sabablarini ko‘rsatish uchun olinsa, to‘g‘ri bo‘lardir. Yana T. Aliqulov sinekdoxani lingvistik va poetik degan ikki ko‘rinishga ajratgan.

Sinekdoxani tasnif qilishda faqat bir nuqtayi nazarni e‘tiborda tutishga to‘g‘ri keladi, u ham bo‘lsa, so‘zning hosil qiluvchi leksik ma‘nosi butun referentni ifodalaydimi? Shu nazarda tutilsa sinekdoxalar:

1) *bo‘lak nomidagi sinekdoxa*

2) *butun nomidagi sinekdoxalarga* bo‘linadi.

Bo‘lak nomidagi sinekdoxa so‘zning hosil qiluvchi ma‘no referenti bo‘lak bo‘lib, hosila ma‘no referenti uni o‘z ichiga olishi bilan xarakterlanuvchi sinekdoxadir. Uni lotin tilida **totum pro porte** “*butun bo‘lak nomi bilan*” deb ataladi.

Masalan:

Bitta **tirnoq** tilandim, allayo alla,

Xudoyimga elandim, allayo alla. (“*Alla*”. 27-bet)

Ushbu misralardagi tirnoq so‘zi “farzand” hosila ma‘nosi bilan voqelangan. Bu so‘zni hosil qiluvchi ma‘nosi “*barmoq uchidagi muguz*” ni ifoda etadi. Bu o‘rinda ma‘no taraqqiyoti bo‘lak nomidagi sinekdoxa deb qaraladi, ya‘ni, bo‘lak nomi (tirnoq) bilan, butun (odam, farzand) nomlangan.

Sinekdoxaning shunday ko‘rinishi borki, unda ko‘plik o‘rnida birlik qo‘llaniladi:

Demagil, qilmishining barchasi sirdir,

Yuzingni yulmagil, ko‘nglingni sidir,

Chinqirib dunyoni chiylolmagaysan,

Ayo do‘st, o‘zingdan o‘zingni qidir. (296-bet)

Ijodkor bunda do‘stiga emas, butun insoniyatga murojaat etmoqda.

Demak, sinekdoxa so‘z hosila ma‘nosi yuzaga kelishining hosil qiluvchi va hosila ma‘nolari bilan biri butun, boshqasi uning tarkibiga kiruvchi bo‘lak bo‘lishiga asoslangan.

Vazifadoshlik

Biror narsaning nomi boshqasiga ular bajargan vazifadagi o'xshashlik asosida ko'chirilsa, **vazifadoshlik (funktional ko'chirish)** deyiladi.

Vazifadoshlik ham o'xshashlik asosida bo'ladi. Bu jihatdan u metofora yo'li bilan ko'chirishga juda yaqin turadi. Farq shundaki, metofora yo'li bilan ko'chirishda predmetlar orasidagi tashqi ko'rinish jihatdan, material jihatdan o'xshashlik asosida olinsa,unktional ko'rinishda vazifa jihatdan o'xshashlik hisobga olinadi.¹

Tilshunoslikda qayd etilishicha, u so'zning biror leksik ma'nosi referenti o'z vazifasini bajarish uchun eskirib, uning o'rniga hosila ma'no referenti kelishi, vazifasi va nomini to'liq egallashidir. Ya'ni, bunda hosila ma'no referenti hosil qiluvchi ma'no referenti o'z vazifasidan surib chiqarganligi uchun uning nomini oladi. Masalan:

Ungan maysa bilan birga unguvchi,
Go'dakning labida toza kulgichi,
Sher yozsa jonidan **qalam** yo'nguchi,
Onamning aytmagan ash'ori ko'nglim.

(“So'zlarga sig'maydi” 185-bet)

Yuqoridagi misralardagi “qalam” so'zi tarixan “*qamish yoki patdan yasalgan yozuv quroli*” ma'nolarini ifodalagan bo'lsa, vazifasi bir – xil bo'lgani uchun grafitli o'quv quroli ham “qalam” deb ataladigan boldi.

O'qlar mening jonimni teshar,
Qaro kunlar yodimga tushar,
Ko'zlarimdan alamlar toshar,
Qiynoqlardan ezildim do'stim.

(“Armon” 51-bet)

Yuqoridagi 1 – misralardagi “o‘q” so‘zi tarixan “yoyga qo‘yib otadigan, uchi nayza, ingichka tayoqcha” ma’nosini anglatga, vazifasi bir xil bo‘lganidan “miltiq, to‘pponcha, pulemyot kabi qurollarga joylab otiladigan kichkina snaryad” ham o‘q deyiladi.

II bob:

Ijodkor ijodida so‘zning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlarining ifodalanishi

Ona tilini o‘rganish nihoyatda dolzarb vazifa. Inson tafakkurining erishgan eng yuksak yutuqlari, eng chuqur bilimlari va g‘oyat otashin hislar, agar ular so‘z vositasi bilan aniq va ravshan ifoda qilinmasa odamlar uchun noma’lumligicha qolaveradi.

Agarda biror narsani aniq ifodalay olmas ekanmiz, bunda tilimizdan emas, balki uquvsiz mahoratimizdan gina qilishimiz kerak,¹² - kerak degan edi M.V.Lomonosov. So‘z sa’natkorlari tilga alohida e’tibor berib keldilar, uslub va ifodaning soda bo‘lishini nutqda fikriy mujmallikka yo‘l qo‘ymaslikni targ‘ib etdilar. Ulug‘ mutafakkir va shoir Alisher Navoiy “Tilga e’tibor-elga e’tibor” deb tilning ahamiyatini alohida ta’kitladi. Shoh va shoir Bobur esa o‘g‘li Humoyunga yozgan maktublaridan birida o‘g‘lining xatda fikr ravonligi va aniqligiga rioya qilmaganligidan tashvishlanib “xatingni xud tashvish bilan o‘qisa bo‘ladi... Mundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila bit, ham senga tashvish ozroq bo‘lur ham o‘qiguvchiga”, - degan edi.

Bugungi kunda tilga tizim sifatida qaralayotgan bir paytda tilshinoslikda lisoniy birliklarning ma’naviy munosabati, ularning o‘zora o‘xshash va farqli xususiyati masalasi ko‘pgina tilshunoslarni o‘ziga qiziqtirib qo‘ymoqda. O‘tgan asrimizning 40-90-yillarigacha so‘zlararo ma’naviy munosabatlar sinonimiya va bilan chegaralanib qoldi. Sistim tahlil usuli asosida olib borilgan keyingi kuzatishlardan tizimda ma’naviy munosabat rang-barang ekanligi oydinlashib, ularning graduonimiya, funksionimiya, ierarxionimiya kabi turlari ham farqlanadi¹³. So‘zlar ma’no munosabatiga ko‘ra 4 ga bo‘linadi.

¹² “Sharq yulldizi”, 1952, N 1, 111-bet.

¹³ Shukurov O. Boymatov B. O‘zbek tilining ma’nodosh so‘zlar lug‘ati. Toshkent. 2009. 7-bet

- 1 Sinonim
- 2 Antonim
- 3 Omonim
- 4 Paronim

Ma'nolari bir xil yoki o'zora yaqin talaffuz va yozilishi har xil bo'lgan so'zlar sinonim hisoblanadi. Sinonim yunoncha *synonimon* - "*birgalikda ismlash*" demakdir. Masalan: chiroyli, ko'rkam, go'zal, xushro'y, suluv, zebo

"Butun til mexanizmi faqat o'xshashlikdir va tafovutlar atrifida aylanadi", -degan edi Ferdinand de Sosyur.

Sinonim-ma'nodoshlik qatoridagi leksemalarning ifoda semasi turli-tuman.

Ulardan ayrimlari quyidagilar:

- 1) ijobiy yoki salbiy baho yoxud munosabat semasi;
- 2) leksemalarning qo'llanishi davrini ko'rsatuvchi sema: "eskirgan", "yangi", "o'ta yagi", "arxoik"
- 3) leksemaning qo'llanish doirasini ko'rsatuvchi sema "shevaga xos", "so'zlashuvga xos", "kitobiy", "ko'tarinkilik"

Ma'nodoshlik qatoridagi leksemaning bittasi *dominanta* (bosh) leksema bo'lib, boshqalari shu leksema atrofida birlashadi, ma'nodoshlik qurshovi xosil qiladi. "*Dominanta*" yunoncha so'z bo'lib "*hukmron*" degan ma'noni anglatadi. Dominanta leksemaning yuqorida sanalgan barcha ifoda semasiga neytral, betaraf. Masalan, katta-ulkan-bahaybat-azim-buyuk-ulug' sinonimik qatori "kitobiylik", "ko'tarinkilik" ifoda semalari asosida tashkil topgan. Qatordagi katta leksemasida bu sema belgilanmagan (neytral), ulkan va bahaybat leksemalarida ifodalangan, oydinlashtirilgan.

Ma'nodoshlik qatoridagi *dominanta* leksemaning bir qancha o'ziga xos xususiyati bor:

- 1) *dominanta* leksemaning mazmuni boshqa leksemalarnikiga nisbatan "kambag'alroq" bo'ladi.

- 2) dominanta leksemaning qo'llanish doirasi va miqdori va boshqa ma'nodoshlarnikiga nisbatan keng va ko'p bo'ladi.
- 3) dominanta leksema belgilanmagan ifoda semasiga ega bo'lganligi bois istalgan vaqtda o'z ma'nodoshlarini almashtira oladi.
- 4) Ma'nodoshlik qatori mansub bo'lgan katta tizimga faqat dominanta leksema kiradi.¹⁴

O'zbek tili nutqda nozik ma'no ottenkalarini hamda rang- barang stilistik bo'yoqlarni bera oladigan sinonimlarga boy. Mashhur o'zbek shoiri va yozuvchilari, so'z ustalari sinonimlardan mohirlik bilan foydalanib kelganlar. Masalan, Alisher Navoiy o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida birgina *yig'lamoq* so'ziga mazmunan yaqin bo'lgan yettita sinonimni keltiradi: *yig'lamsiramoq, ingramoq, siqtamoq, o'kirmoq, qichqirmoq*. Navoiy bu sinonimlar bir-biridan nozik ma'no tovlanishlariga ko'ra farqlashni misollar bilan ko'rsatadi. Ko'zdan yosh chiqarmasdan yig'lash-yig'lamsiramoqning ma'nosini Navoiy quyidagi baytda ochib beradi.

Zohid ishqin desaki, qulg'ay fosh,

Yig'lamsinur-u ko'ziga kelmas yosh.

So'ngra Navoiy ingramoq va singramoq so'zlariga izoh berar ekan, "*dard bila yoshurun ohista yig'lamoqdur va oralarida tafovut oz topilur*" deydi va quyidagi baytni keltiradi:

Istasam davr ahlidin ishqingni pinhon aylamoq,

Kechalar goh ingramoqdir odatim, goh singramoq.

Ko'rinadiki, sinonimlar bir xil ma'nosi bilan birlashuvchi sinonim so'zlar qatorini tashkil qilsa, fikr va his-tuyg'ularni aniqroq, ravshanroq ifodalashga imkon beradigan stilistik ma'nolarga ko'ra o'zoro farqlanadi.

"Birdan ortiq so'zlarning o'zora sinonimligi ularning bir xil ma'noga ega ekanligiga asoslanar ekan, tabiiy ravishda faqat bir turkumga oid so'zlargina o'zoro sinonimik munosabatda bo'la oladi"¹⁵

¹⁴ Sayfullayeva R va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. 2009, 113-bet.

¹⁵ Hozirgi o'zbek tili. Toshkent. 1980. 116-bet.

Bugungi she'riyatimizda mahorat bilan qalam tebratayotgan ijodkor Mahmud Toir ham ijodida sinonimlar unumli foydalangan:

Quvonch qo'shig'idek ko'z ochdi kurtak,
Shodlik shakli bo'lib tug'ildi go'dak,
Diydorga talpinar intizor yurak
Yashashdan yaxshi baxt yo'q ekan balsam.
(“Yashash baxt” 34-bet)

Quvonch, shodlik so'zlari insonga xos his-tuyg'uni ifodalovchi mavhum otlar bo'lib “xursandchilik,sevinch” ma'nosini ifodalaydi.Ijobiy bo'yoq ikkala so'zdan ham mavjud.Shoirning mahorati shundaki,u yaralash,dunyoga kelishni juda chiroyli qilib quvonch va shodlikka mengzagan.O'rinsiz takrorlarning oldi olinib ,aynan bir so'zning ma'nodoshini qo'llagan.

Dard bo'lganga dard ham pushaymon,
Armonlikdan lol qolar armon,
Ey daryodil,ey metin inson,
Jonni o'tga soldingiz uztoz,
Otash bo'lib qoldingiz,uztoz.
(“Oriyat ustuni edi” 17-bet)

Ushbu misralardagi o't va otash so'zlari ko'chma ma'noda qo'llanib,”*kishi ruhiyatiga alanga,olov kabi yonuvchi,kuydiradigan holatni*” anglatib ma'nodoshlik hosil qilgan.Bunda “otash” so'zi uslubiy ma'no tovlanish va o'z bo'yog'iga ko'ra “o't” so'ziga nisbatan boyroq.

Sening **zaboning**da sachragan atir,
Mening **tillarim**da ishqiy bir satr.
Visoling bir onlik munavvar nuri,
Qirq yil yashab qo'ygan umringa tatir.
(“To'rtlik” 296-bet)

Yuqoridagi misralardagi zabon, til ot soʻz turkumidagi soʻzlar “jamiyatda fikr almashishning muhim vositasi, soʻzlash, fikr ifodalash qobiliyati” kabi maʼnolarga koʻra maʼnodoshdir. Ushbu sinonimik qatorda “til” – bosh soʻz, dominanta, yaʼni, neytral soʻzdir. Zabon esa ijobiy boʻyoqqa ega, badiiy uslubga xos soʻz. Til-oʻzbekcha, zabon-fors-tojikcha soʻz.

Qaldirgʻochim, oh seni suq nafasdan asrasin,
Gar tillodan boʻlsa ham **toʻr, qafasdan** asrasin
Oʻylagani kin, riyo har nokasdan asrasin,
Qanoting qayrilmasin koʻrmagan zavol, qushim
Kel uyimni toʻldirib ayvonimda qol qushim.

(“Qaldirgʻoch” 56-bet)

Shoir bunda *toʻr, qafas otlarini* qoʻllab sinonimlik hosil qilgan. Toʻr bu “katak shaklida toʻqilgan baliq yo qush ovlash uchun ishlatiladigan buyum, tuzoq” dir. Qafas esa “qush va hayvonlarni saqlash uchun maxsus yasalgan xonacha”. Qafas va tur soʻzlar “tutqunlik” semasini koʻra sinonimlik hosil qilgan, yaʼni, bu kontekstual sinonimiyadir.

Bahor, bemor kutgan malhamday shirin,
Bahor, sevdim degan alhamday shirin.
Mahmudga qay fasl **koʻklam**day shirin,
Bahorga yetganlar omon boʻlsinlar.

(“Bahorga yetganlar omon boʻlsinlar” 19-bet.)

Bunda sinonimik munosabat oʻz leksema bilan oʻzlashma orasida yuzaga kelgan. Yaʼni, bahor forsha soʻz, koʻklam oʻzbekcha. Har ikkalasi yildagi faslning biri, qishdan keyingi yozgan oldingi faslning anglatadi. Dominanta soʻz-bahordir.

Sinonimiya tilning boy ekanini, taraqqiyot darajasini koʻrsatib turuvchi hodisalardan biri. Sinonimiya sababli nozik maʼno qirralari anglatiladi, rang-barang uslubiy baholar ifodalanadi. Sinonimlardan birini tanlab ishlatish orqali voqelikning bir qirradi boʻrtadi.

Aslida ma'nodoshlik voqe' bo'lishi uchun lug'aviy birliklar o'zora ma'lum tenglikka, bir xillikkagina emas, balki ayirmalarga ham ega bo'lishi lozim. Leksema yoki frazemani tanlab ishlatishda har gal ana shu ayirmalar bilan hisoblashga to'g'ri keladi. O'z fikrini anglatishga, o'z munosabatini ifodalashga yagona o'rinli leksema yoki frazemani sinonimiya qatoridan tanlab ola bilish kerak.¹⁶

Mahmud Toir o'z ijodida sinonimiya hodisasidan mahorat bilan foydalanib o'zbek tilining qanchalik boyligini ko'rsatib bergan. Zero sinonimlar nuqtani ta'sirchan bayon qilishda, hamda uslubning rangdor bo'lishini ta'minlashda, qaytariqlarning oldin olishga katta ahamiyatga ega.

Antonim

Til birliklarining o'zora zid munosabatidagi ma'nolarni anglatishi asosida guruhlanishiga antonimiya deyiladi (yunoncha anti- "zid, qarashi", onyma- "ism"). Sinonim qatorida ikki va undan ortiq til birligi qatnashdi, chunki ular ayni bir voqelikni nomlaydi, ifodalaydi. Antonimiya munosabatida esa ikki til birligi qatnashadi, chunki bunday munosabat biri ikkinchisining aksi bo'lgan voqelikni nomlaydigan, ifodalaydigan til birliklari orasida voqe' bo'ladi. Antonimlarni belgilashdagi asosiy o'lchov-leksik ma'no, ya'ni, so'zlarining zid ma'no bildirishi, shu bilan birga so'zlarning antonym ekanini belgilashda mantiqiy markaz prinsipidan o'rinli foydalanish lozim.¹⁷

Antonimiya 2 xil bo'ladi:

- 1 Lug'aviy antonimiya- lug'aviy birliklarning o'zora antonim bo'lishi: boy-kambag'al, arzon- qimmat
2. Grammatik antonimiya – grammatik birliklarning o'zora antonym bo'lishi. Bu juda kam uchraydi: -dan-ga (uydan-uyga) kabi.

¹⁶ Tursunov U, Muxtorov A, Raxmatullayev Sh Hozirgi o'zbek adabiy tili. T; 1992, 119-bet.

¹⁷ Raxmatullayev Sh, Mamatov N, Shukurov R O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati. Toshkent. 1989 –yil 10-bet.

Jahon tilshunosligida antonim haqidagi fikrlar Sh.Balli,V.Arnold,I.Galperin,V.Vinogradov,A.Yefimov,I.Golub va boshqa olimlarning ilmiy asarlarida o‘z aksini topgan.L.A.Vedenskaya antonimlarga asoslangan stilistik figuralardan oksimoron,akroteza kabi hodisalar qatoriga antitezani o‘rgangan. Nemis tilidagi antonimlarni o‘rgangan olim I.Gelblu antonim va antitezan o‘zora aloqalari nuqtayi nazaridan tadqiq etgan.Shu o‘rinda olima antonimlarni tafakkuridagi qarama-qarshi tushunchalarni yuzaga keltiruvchi til vositasi sifatida qayd etiladi.

G.M.Belova fransuz tili materiallari asosida antinimlarni yuzaga keltiruvchi lisoniy vositalar haqida fikr yuritadi.M.S.Kaplon esa antonimlarning stilistik xususiyatlari haqidagi fikrlarni asoslaydi.¹⁸

Tilshunoslikda antonimlar belgilash bo‘yicha munozarali qarashlar ham bor.Xususan,ayrim manbalarda opa va singil,aka va uka,tog’a-xola kabi so‘zlar antonimlar deb hihoblanadi.Shu soha bo‘yicha maxsus ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan B.Isabekov esa ularni antonym emas korrelativ so‘z deb baholaydi.Buni yuqoridagi leksemalarningma’nolarni qarama-qarshi emas,balki bir-biriga juda yaqindir deb asoslaydi.

Fe’ning bo‘linishi va bo‘lishsiz shakllari (bordi va bormadi,boray va bormay,ko‘rgan va ko‘rmagan kabi formalar) ayrim adabiyotlarda “antonimlarning alohida bir tipi” deb qaraladi.Biroq tilshunos Sh.Rahmatullayev bu fikrga qo‘shilmaydi.Uningcha,oddiy inkorning o‘zi hali antonim emas.Masalan, ayt va aytma,aytar va aytmas kabilar biri ikkinchisining inkori.Ammo ularni o‘zaro antonim deb bo‘lmaydi.Asli bular ikki leksema emas,balki ayni bir leksemaning ikki (bo‘lish va bo‘lishsiz) shakllaridir. Antonimiya esa ikki leksema orasidagi ma’no munosabatidir. Antonimiyani ayni shunday tushunish ayrim ilmiy manbalarda ham bor.

Antonimiya mezonini belgilashda Sh.Rahmatullayev,N.Mamatov va R.Shukurovlar tamonidan tavsiya etilgan mantiqiy markaz prinsipiga tayanish yaxshi natija beradi.Bu prinsipga ko‘ra ikkita ma’no o‘rtasidagi oraliq tushuncha (mantiqiy markaz) aniqlanadi va shu markazning ikki tamonidan o‘rin olgan

¹⁸ Keldiyorova G. Antiteza talqinlariga doir.O‘zbek tili va adabiyot jurnali.Toshkent.2000/5 57-bet.

tushunchalar o‘zora antonimik munosabatlarda deb qaraladi. Masalan, *bahor* bilan *kuz* orasida yoz bor, demak bu ikki leksema o‘zora antonim.

Har qanday so‘z o‘zaro antonimik munosabatga kirishavermaydi. Shunday bo‘lishi tabiiy, chunki juda ko‘pgina narsa-hodisalar o‘zining ziddiga ega emas. Qarama qarshi juftiga egalik ko‘proq narsa hodisalarning belgisida kuzatiladi. Shuning uchun ham antonimiya asosan, belgi bildiruvchi so‘z (sifat va ravish)larda uchraydi. Ot va fe‘l turkumidagi sanoqli darajadagi antonimlar ham ularning belgilaridagi ziddlik asosida yuzaga keladi. Masalan, kun-tun (yorug‘ va qorong‘ulik belgisi), orqa – old (makondagi qaram- qarshi tamon belgisi).

Ma’no jihatdan antonimlar o‘zaro bog‘lanishli bo‘ladi: birini aytish bilan shuning ziddi ko‘z oldiga keladi, birining ma’nosi uning antonimiga ko‘ra aniq gavdalanadi, go‘yo antonimlar biri ikkinchisini turtib turgandek. Antonimlar tilning kuchli stilistik vositalaridan biri bo‘lib shoirlar voqelikni, narsa va hodisalarning sifat va xususiyatlaridagi farqni ko‘rsatishda, bir-biriga qarama qarshi qo‘yib tasvirlashda-kontrastlar hosil qilishda antonimlardan foydalanadilar. Ayniqsa, she’riy asarlarda bir-biriga zid fikr va hissiyotlarni ifodalashda antiteza san’ati keng qo‘llaniladi.

Mahmud Toir ham o‘z ijodida zid ma’noli so‘zlardan unumli foydalanilgan:

Hasadni xazondek yoqsalar,
Havasdan chaqmoqlar chaqsalar
Ko‘zingga beminnat boqsalar
Bir kamligi yolg‘on dunyoning

(“Bir kamligi yolg‘on dunyoning” 24-bet)

Shoir bunda hasad va havas otlarini qo‘llash orqali antiteza san’atini hosil qilgan. Bunda “havas” arabcha so‘z bo‘lib “*qiziqish, zavq hissi, biror kimsa yo uning fazilatlariga shunday his tuyg‘uli munosabatini*” ifodalasa, “hasad” arabcha so‘z bo‘lib bu “*kimsaga xos, unga tegishli narsa, fazilatlarni ko‘ra olmaslik hissini*” ifodalaydi.

Kimga yersan, kimga to‘zonsan

Buncha **qimmat**,buncha **arzonsan**.

Peshonamga nima yozgansan

Dunyo,seni tushinim bo'lmas.

(“Ajab” 26-bet)

Bunda shoir antonimlardan oldin bir soʻznitakror qoʻllab,ifodaning yorqin boʻlishiga erishgan “Qimmat” va “arzon” soʻzlari sifat turkimiga mansub.Ushbu misralarda bu soʻzlar koʻchma maʼnoda dunyoga nisbatan qoʻllanib,goh uning bebaholigi,goh esa bahosi past,qadri kamligi ifodalangan (qimmat koʻchma maʼnoda “ pulga,hush narsaga sotib olib boʻlmaydigan,bahosi yoʻq; bebaho,qadrli,aziz”)

Hech kim yovgʻon oshagisi yoʻq,

Hech kim yomon yashagisi yoʻq

Vale biri **ochdir**,biri **toʻq**,

Mehring koʻpni,**qahring**,ey hayot.

(“Hayot” 6-bet)

Bunda shoir “och ,toʻq” sifatlari, “mehr,qahr” otlaridan foydalanib,antiteza sanʼatining goʻzal namunalaridan birini yaratgan.Ushbu misralarda mehr,qahr otlari hayotga nisbatan qoʻllanilib,koʻchma maʼno ifodalagan.

“Qahr” arabcha soʻz boʻlib “**alam,qaygʻu, jahl**” tuygʻusini ifodalab kelgan boʻlsa, “mehr” forscha “*insonning oʻz tugʻishgan yaqinlariga boʻlgan samimiy munosabati, yaxshi koʻrish tuygʻusi*”ni ifodalagan.

Odamzotning yoshin zoʻrama,

Mingga kirmas axir bandasi

Qaygʻulari yerning ostida,

Biz dunyoning yangi **xandasi**

Yuqoridagi misralarda shoir qaygʻu,xanda mavhum otlarini qoʻllash orqali antonimlik hosil qilgan.Bu soʻzlar orqali antonimlik hosil qilgan.Bu soʻzlar insondagi qarama -qarshi hissiy holatni ifodalagan.Yaʼni, qaygʻu- “boshga tushgan ruhiy azob,gʻam –musibat”,xanda – “ kulgu,qahqaha”dir.

Bu dunyoning **bozor**laridan,

Nima topding joningdan ortiq.
Bu dunyoning **mozor**laridan,
Kimga qilding joningni tortiq.

(“O‘zga uchun” 33-bet)

Bunda bozor va mozor o‘rin otlari matnda antonimlik hosil qilgan, ya’ni bu kontekstual antonimdir. Mozor - forscha “*vafot etgaan kishilar dafn etiladigan joy, qabristonni*” anglatga, bozor forscha so‘z bo‘lib “aholi savdosotiq qiladigan maxsus joy”ni anglatadi.

Antonimlar ifoda planiga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

- 1) avvalo, ifoda planiga ko‘ra antonimlar har xil bo‘ladi: katta-kichik, uzoq-yaqin
- 2) bir asosdan ikki zid affikslar yordamida yasalgan bo‘ladi: ongli-onsiz
- 3) Bir so‘zning o‘zi ma’nolariga ko‘ra zidlanishga bo‘ladi: arqonning uchu birikmasida arqonning boshlanish qismi ham, tugallangan qismi ham nazarda tutiladi. Bu tilshunoslikda enantiosemiya deb yuritiladi.¹⁹

Antonim so‘zlar hodisa va holatlarning ichki ziddiyatini ochishda kuchli stilistik vosita sifatida muhim rol o‘ynaydi. Zidlash munosabatini ifodalashning ko‘rinishlaridan yana biri oksimorondir. Kish yoki predmetning tabiyati va mohiyatiga xos bo‘lmagan zid belgini unga nisbatan qo‘llash orqali antonimik munosabat hosil qilish oksimoron (yunoncha oxumoron – “o‘tkir ma’noli bema’nilik”) deyiladi. Bunda to‘g‘ri ma’nolari bilan mantiqiy jihatdan muvofiq kelmaydigan so‘zlar bir-biri bilan uchrashadi, natijada komponentlari mohiyat e’tibori bilan bir-biriga tamomila qarama – qarshi bo‘lgan ko‘chma ma’nodagi birikma hosil bo‘ladi. Adabiyotlarda oksimoron siqiq va shuning uchun ham paradoksal mazmun kasb etuvvi antiteza deb qaraladi, biroq bu hamisha to‘g‘ri emas. Chunki antitezada zid ma’nodagi ikki so‘z bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilsa, oksimoronda mazmun jihatdan zid fikrlarni ifodalovchi so‘zlar ajralmaslik hosil qiladi. Masalan,

¹⁹ Asqarova M, Yunusov R, Yo‘ldoshev M, Muhammedova D. O‘zbek tili praktikumi. Toshkent. 2006. 75-bet.

Yashnab turib qurisa bog'im,
Yonib turib o'chsa chirog'im.
Qaydan ketsin yurakdan dog'im,
Deyman otam qayon ketdilar,
Derlar otang qayon ketdilar.

(“Ota” 25-bet)

Yuqorida “yashnab turib qurimoq”, “yonib turib o'chmoq” birikmalarida oksimoron hodisasi kuzatiladi. Zid ma'noli so'zlarni yonma-yon, birikma holida qo'llash orqali tasvirdagi ma'no kuchayganini ko'rishimiz mumkin.

Mahmud Toir o'z ijodida antonimlardan mahorat bilan foydalana olgan ijodkordir. Zero antonimlar she'r ta'sirchanligini oshirishda, ma'noni kuchaytirishda, fikrni yorqin ifodalashda muhim ahamiyatga ega.

Omonimlar

Tilda tovush tomoni va yozuv tomoni bir xil bo'lib, ammo turlicha bir-biriga bo'g'liq bo'lmagan ma'no ifodalovchi so'z, qo'shimcha, ibora mavjud. Bunday birlik omonim deyiladi. Masalan: O't (“maysa, o'simlik”), o't (“olov”), o't (harakat)

Agar polisemantik so'z ma'nolari o'rtasidagi bog'lanish yo'qolsa yangi so'z hosil bo'ladi. Bunda so'zning shakli o'zgarmay qolishi tufayli omonim yuzaga keladi. Masalan, dam (nafas), dam (hordiq), dam (bosqon) omonimlari xuddi shunday usulda yuzaga kelgan.

Omonimiyaga olib keluvchi asosiy hodisalardan biri birdan ortiq so'zning talaffuz jihatdan tasodifan mos kelib qolishi. Bu hol asosan, o'zga tillardan so'z o'zlashtirish natijasida sodir bo'ladi. Bunda o'zlashma so'z bilan o'z tilidagi so'z yoki turli tillardan o'zlashgan so'zlar o'zaro talaffuz jihatdan bir xil bo'lib qoladi. Masalan, tojikcha bog' (“daraxtlardan hosil qilingan maydon”) bilan o'zbekcha *bog'* (*bog'laydigan narsa, bog'lashdan hosil bo'lgan tugun*)¹.

Omonimiya bilan polisemiya o'rtasida m'lum o'xshashlik bor:

1) Ko'rinishda ifoda plani bitta bo'ladi.

2) Shu plan anglatadigan birdan ortiq leksik ma'no bo'ladi. Ammo bunday o'xshashlikdan qat'iy nazar omonimiya bilan polisemiya o'zaro keskin farq qiladi.

1) Polisemiyada ifoda plani asli bitta bo'ladi. Omonimiyada esa odatda ifoda plani asli bittadan ortiq bo'lib, hozir o'zaro teng kelib qolgan bo'ladi.

2) Polisemiyada sememalar o'zaro biri ikkinchisiga bog'liq, shunga ko'ra bu sememalar bir leksema birlashadi. Omonimiyada esa sememalar o'zaro bog'liq bo'lmaydi yoki bog'liqlikni yo'qotgan bo'ladi, shunga ko'ra bu sememalar bir leksema birlashmaydi.

3) Polisemiyada birdan ortiq sememaga ega bir leksema haqida, omonimiyada esa ifoda planiga teng keluvchi ikki yoki undan ortiq leksema haqida so'z yuritiladi.

Boshqa tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilining shakldosh so'zlar tizimi o'zlashma, lug'aviy birliklar hisobiga kengaygan. O'zbek tili shakldosh so'zlar tizimini boyitishda arabcha lug'aviy o'zlashmalar alohida salmoqqa ega.

O'zbek tili ba'zi lug'aviy omonimiya paradigmalarining vujudga kelishida arab o'zlashmalarining fonetik qiyofasi alohida ahamiyat kasb etadi. Kuzatishlardan shu narsa seziladiki, ba'zi omonimik paradigmalarda arabcha lug'aviy birliklar o'zlarining asl qiyofasini saqlagan bo'lsa, ba'zan ularning fonetik qiyofasida o'zgarish yuz bergan. Ana shu o'zgarish ularni til lug'at tarkibidagi boshqa lug'aviy birlik bilan omonimlashuviga sabab bo'lgan. O'zbek tili lug'aviy omonimiyasini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin.

1) Omonimiya qatoridagi a'zolarining barchasi arab o'zlashmalari tavsifida bo'ladi: (arabcha – arabcha so'zlar omonimiyasi)

2) Omonimiya qatoridagi a'zolarining biri arabcha, boshqasi o'zbekcha yoxud arab tiliga mansub bo'lmagan boshqa o'zlashmalar tavsifida bo'ladi: (arabcha va arabcha bo'lmagan so'zlar omonimiyasi)

O'zbek tiliga o'zlashgan bir qator arabcha so'zlar o'zga til lug'aviy unsurlari ishtirokisiz ham o'zaro omonimik xususiyat kasb etadi:

1) Arab tilidan o'zlashgan ayrim so'zlarning fonetik tarkibida o'zbekcha unga muvofiq tovush bo'lmaganligi sababli boshqa tovush bilan almashtirilgan.

“*Alam, iztirob, og’riq*” ma’nolari ma’nolarini anglatuvchi alam so‘zi misolida buni ko‘rishimiz mumkin. Bu so‘z halqumda talaffuz qilinuvchi shovqinli, portlovchi, bo‘g‘iz tovushi edi, lekin bunday tovush o‘zbek tiliga xos bo‘lmaganidan alam₁ – alam₂ omonimiyasi vujudga kelgan.

Bunday shakldosh so‘zlarni balo₁ – balo₂, safar₁ – safar₂ paradigmatic qatorlarda ham ko‘rish mumkin.

2) Arab tilining o‘zida mavjud bo‘lgan omonim so‘zlar, o‘zbek adabiy tiliga aynan o‘zlashtirilgan: asr – “yuz yil” va “shom”, davlat – “mamlakatning mavjud tizimini muhofaza qiluvchi ma’muriy – siyosiy uyushma”, “shu uyushmaga ega bo‘lgan mamlakat va boylik”.²⁰

Tildagi har xil so‘zning leksik ma’nosi boshqa so‘zlar bilan munosabatga kirishganda reallashadi. Omonimlarning matndan tashqari yolg‘iz o‘zini ishlatish deyarli uchramaydi. Shunday ekan, matn omonim so‘zlar tufayli sodir bo‘luvchi qiyinchilikni bartaraf etadi.

Shuningdek, ot so‘z turkumi doirasida ham omonimlar uchraydi:

- 1 -

Oy bizga egildi, qayrildi quyosh,
O mulki malagim, o jajji dilkash.
Shirin bo‘lar ekan sevinch to‘kkan **yosh**,
Kulbimiz sen bilan qasrdan ko‘rkam
Sen asli ko‘nglimiz ko‘rki nabiram.
(“Nabira” 22-bet)

- 2 -

Ellik **yosh** – kamolot ko‘rkidagi nur,
Ellik yosh – umrning ko‘ksidagi dur.

²⁰ Eshonqulov B. Arabcha lug‘avaiy o‘zlashmalarning omonimiyaga munosabati. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali.1999/3.59-b

Agarchi yasharsan el nazarida,
Izlaringda unmesh baxt degan surur.

Birinchi she'rdagi *yosh* –“ *qattiq og'riq, qayg'u yoki kuchli sevinch, shodlik kabilar natijasida yosh bezlaridan ajrtalib chiqadigan sho'r suyuqlik*” ma'nosida kelgan.

Yosh II - “tug'ilgan vaqtdan boshlab yashab o'tkazilgan yillar jami, umr uzoqligini ifodalab kelgan”. Ushbu misol to'liq omonimiyaga kiradi.

Shakliy tenglik deganda so'zlarning bir – xil aytilishi va shunga ko'ra bir – xil yozilishi nazarda tutiladi. Ammo shakliy tenglik bazan bir tomonlama – yo yozilishi jihatdangina bo'ladi. Shunga ko'ra omonimiyaning quyidagi ikki turda farq qilinadi.

1) **To'liq omonimiya** – birdan ortiq so'zning ham aytilishi, ham yozilishi jihatdan teng kelishi: *yosh* – *yosh*.

2) **To'liqsiz omonimiya** – birdan ortiq so'zning yo aytilishi, yo yozilish jihatdan teng kelishi. Buning o'zi ikki turga bo'linadi.

- Aytilishi bir xil ammo yozilishi har xil bo'lsa omofonlar deyiladi: *tuzsiz* (*tussiz* - I) va (*tussiz* - II). Omofonlar asosan, sozlashuv nutqiga xos, qismangina adabiy nutqda ham uchraydi.

- Yozilishi bir – xil, ammo aytilishi xar – xil bo'lsa, omograflar deyiladi: tom I (*tommoq* felining buyruformasi), tom II (“*jild*” ikkinchi tom) kabi.

Mahmud Toir ham o'z ijodida omograflardan foydalanganining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Sog'inch mening ko'zlarim *tilar*,
Orzu aldab sochlarim *silar*,
Yurak esa visoling *tilar*,
Sen qaydasan, izsiz muhabbat.

(“Qaydasan muhabbat” 32-bet)

Shoir bunda mahabbat tasvirini “*tilar*” omonimidan foydalangan holda chiroyli ifoda etgan. Ya'ni, *ishq tufayli oshiq iztirobda, sog'inch uning ko'zlarini tilmoqda, yaralamoqda, yurak esa yor visolin tilamoqda. Bunda tilmoq feliga* -

ar kelasi zamon qo‘shimchasini qo‘shib, hos qilib a misradagi *tilar* so‘zi esa tilmoq feliga *r* zamon formasini qo‘shib kelasi zamon fe’li hosil qilingan

- 1 -

Gar yaxshilik yo‘ldoshing bo‘lsa,
Yoding bilan yashar odamlar.
Qish poyonlab, ko‘kka kun kulsa,
Qordan qo‘rqmay **gullar** bodomlar.

(“O‘zga uchun” 33-bet)

- 2 -

Xayoli hur, o‘zi qullar bor,
Tuvagidan tushmas **gullar** bor.
Kim nimadan topar e’tibor,
Dunyo, senga tushunib bo‘lmas.

(“Ajab” 26-bet)

Gullar I gulla + r (fel + ravishdosh qo‘shimchasi) – “gul ochmoq, gulga kirmoq”.

Gullar I gul + lar (ot + ko‘plik qo‘shimchasi) – “gulli o‘simliklar, chechaklar”.

Shoirning mahorati shundaki, u bir so‘zni turli ma’nolarda qo‘llash orqali obrazlilikka erishgan. Bu o‘rinda omonimik munosabat turli so‘z turkumlari doirasida kuzatilmoqda. Shoirning ikki she’ri ham falsafiy ruhda yozilgan. Ijodkor omonimlardan o‘rinli foydalangan holda chiroyli tasvir yaratilishiga erishgan.

Omograflar she’riyatda qo‘llanganda o‘zgacha tasvir yaratishga xizmat qiladi:

- 1 -

Qadrim so‘raganda qayrog‘im **tilim**,
Yorning tarifida qaymog‘im tilim,
Yovning yuragiga titroqlar slogan
Alpomish belida belbog‘im tilim.

(“Ona tilim” 125-bet)

- 2 -

Majnuntolning xayollari oqqan suvlar,
Ko‘zgu bo‘lib sanamlarga yoqqan suvlar,
Biz g‘aribni ilonlari chaqqan suvlar,
Bilmaysizmi bag‘rim **tilim** mening,
To‘lqiningiz bo‘lim turgan dilim mening.

Yuqoridagi satrlarda *tilim* so‘zidagi omograflik turli so‘z turkumlari doirasida sodir bo‘lmoqda: “Ona – tilim”she’rida qo‘llangan *tilim* (ot + (im) egalik qiluvchi qo‘shimcha). Ikkinchi misoldagi *tilim* (fel + (im) so‘z yasovchi qo‘shimcha).

Tilim – I. til+im (ot + egalik qo‘shimchasi) – “kishilar o‘rtasida, jamiyatda o‘zaro fikr almashishning vositasi, tilshunoslikning asosiy o‘rganish obekti”, ushbu o‘rinda esa ona tili ma’nosida kelgan. (til (fe’l) + im (ot yasovchi) qo‘shimcha).

Tilim – II. “Ko‘p joyidan tilingan yoki bir necha uzun – uzun tilingan, yorilgan yoki tilimlangan” ma’nosini anglatadi, bu o‘rinda ko‘chma ma’noda kelib oshiq bag‘rining yaroligini ifodalab kelgan.

Tilda har – bir hodisaning o‘z o‘rni bor. Unda to‘g‘ri va o‘rinli foydalanilsagina uning jozibasini oshirish, rang – barangligini ko‘rsatib berish mumkin. Omonimlar ham she’riyatda qo‘llanganda so‘z o‘yinlarini hosil qilishda, tasvirni betakror ranglarda jilovlantirishga xizmat qiladi.

Paronimlar

Paronimiya (yun. para-“yonida”+ onyma “nom”) ikki yoki undan ortiq leksemalarning talaffuzda o‘zaro o‘xshash, ohangdosh bo‘lishi. Ikki leksemani paronim deyish uchun:

- 1) yasama leksemalar bo‘lishi;
- 2) ayni bir leksemalardan yasalgan bo‘lishi;
- 3) yasovchi morfemalarning mazmun planda umumiylik bo‘lishi;
- 4) yasovchi morfemalari ifoda plani jihatida o‘xshash bo‘lishi lozim.

Ham ma’no jihatidan, ham talaffuz jihatdan o‘xshashlik tufayli bunday paronimlarni farqlash va o‘z o‘rnida ishlatish ma’lum qiyinchilik tug‘diradi.

Leksik paronimlar ancha sodda talablar asosida ham belgilanadi: fonemalar tizimida faqat bir fonemasi bilan farqlanib turadigan ikki leksema paronim deb qaraladi: abzal (asli afzor: “asbob”, “egar- jabduq”)– afzal (“yaxshi, ortiq”).

Talaffuzdagi o‘ta o‘xshashlik tufayli bunday leksemalarni ishlatishda ham qiyinchiliklar, noo‘rin ishlatishlar voqe‘ bo‘ladi.

Paronomiyada ba‘zan leksemalar tarkibidagi fonemalar miqdori teng bo‘lmasligi ham mumkin, ammo ularning talaffuzidagi bir-biriga yaqinlik, ohangdoshlik bo‘lishi shart: amr (3 ta fonema) – amir (4 fonema), diplomat (8 ta fonema)– diplomant (9 ta fonema) kabi.

Paronimlar omonimlar va omofonlardan quyidagi belgilari bilan farqlanadi:
1. Paronimlarning talaffuzi bir-biriga yaqin, o‘xshash bo‘ladi. Omonimlarning esa talaffuzi va yozilishi bir xil bo‘ladi: o‘t (“maysa”) va o‘t (“olov”) kabi.

2. Omofonlarda ham talaffuz bir xildir: tub vat up (talaffuzda). Paronimlarda esa talaffuz teng emas, o‘xshash bo‘ladi: ganj va ganch.

Omofonlarda fonemalar miqdori teng bo‘ladi, paronimlarda esa ular teng bo‘lishi ham, teng bo‘lmasligi ham mumkin. Qiyos qiling: to‘n–“kiyim”(3 ta fonema)– ton–“tovush toni”(3 ta fonema)–omofonlar; asr(3 ta fonema)–asir (4 ta fonema).

Paronimlarni so‘z variantlari bilan qorishtirmaslik kerak, variatsiyalar esa bir leksemaning turli ko‘rinishlari xolos: tomosha va tamosho, gado va gadoy.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, tilshunoslikda paronimiya hodisasining izchil mezonlari yetarli darajada ishlatilmagan, shuning uchun bir xil hodisaga har xil baho berish holatlari uchray turadi.

Mahmud Toir ham o‘z she’rlarida paronimlardan foydalangan:

1. Mehrimning beshigida e’zoz topgan **qo‘zimsan**,

Sog’inchim eshigida kulib turgan **ko‘zimsan**,

Senga qiyos ne darkor, jon-jahonim, o‘zimsan,

Hurlar ichra sen o‘zing hurimdirsan bolajon. (“Bolajon” 75-b.)

Farzand- Ollohning aziz ne’mati. Shoir unga ta’rif berar ekan, paronimlarni qo‘llab chiroyli tasvir yaratgan.

- 1) qo‘zim=qo‘zi+im –(I shaxs egalik) “bolalarni erkalab murojaat etish shakli”
- 2) ko‘zim=ko‘z+im--(I shaxs egalik) “tirik mavjudotning ko‘rish a‘zosi”.
Ushbu satrlardagi paronimlik ot so‘z turkumi doirasida kuzatilmoqda.

2.Yonar bo‘lsam bir otashda yondirguvchi muhabbatdir,

O‘zgalar ne o‘zimdan ham **tondirguvchi** muhabbatdir.

Tulporlarni turfa yo‘lda **toldirguvchi** muhabbatdir. (107-b.)

N va κ sonorlari tondirguvch ,toldirguvchi so‘zlarida paronimlik munosabatini hosil qilishda ishtirok etgan.

Tondirguvchi- “umuman bor bo‘lgan narsani tan olmaslik, rad etmoq”

Toldirguvchi-“toliqmoq, charchamoq” . Bu ikki so‘z qofiyani ham hosil qiluvchi uslubiy vosita sifati qo‘llangan. Paronimlar o‘quvchilarni fikirlashga jalb etib, so‘z ma’nolarini uqishni talab etadi. Masalan:

3.Oshiq ahlin bog’ida men faqat tikan bosdim,

O‘riklar **shoxi** chaman yetmadi unga dastim . (“Hijronning sadosiman” 97-b.)

Omonat umrimning oromi senda,

Labingdan ichirsang may jomi senda,

Qulingdirman, vale **shoh** qilay desang,

“Begim” degin, Tangri kalomi senda. (208-bet)

Yuqoridagi misralarda shoh vashoh so‘zlari paronimlikni hosil qilgan:

a) shox- “butoq, shox, shoxcha”;

b) shoh- “podshoh, hukumdor”.

Paronimlik nafaqat bir so‘z turkumi balki turli so‘z turkumi doirasida ham kuzatiladi:

4. Bu dunyo qadimdir, inson **ham** qadim,

Yaxshi ham qadimdir, yomon ham qadim.

Gohi baxtim kulib, ketib omadim,

O‘tkinchi dunyodan o‘tib boraman. (“Qadim dunyo” 110-b.)

Yaxshiyam o‘lim bor boshlar **xam** bo‘lur,

Boshim tosh degan toshlar malham bo‘lur. (“So‘nggi yo‘l” 113-b.)

Yuqoridagi ikki she’rda ham va xam so‘zlari paronimlikni hosil qilgan.

“ham” so‘zi yordamchi so‘z turkumi, yuklama bo‘lib, ta’kid, kuchaytirish ma’nosini bildiradi, “xam” esa fors-tojikcha so‘z bo‘lib, pastga egilgan, quyi solingan” ma’nosini ifodalaydi. Paronimik mustaqil va yordamchi so‘z turkumi doirasida kuzatilmoqda.

5.Oshiqning murodi yolg‘iz visoldir,

Toshkent osmonida chehram hiloldir.

Bir qarab qo‘ymoqlik sizga maloldir,

Zorim bor, **zo‘rim** yo‘q, netayin, begim.

(“Kumushbibi aytganlari” 87-b.)

Mahmud Toir yuqoridagi 4-misrada paronimlarni yonma-yon keltirish bilan uslubda teranlikka erishgan. Shuningdek, zorim- zo‘rim paronimlari kontekstual antonym hamdir.

Zorim- fors-tojikcha “muhtoj, intizor”.

Zo‘rim- fors-tojikcha “kuch, qudrat” ma’nolarini anglatadi.

Paronimlar nutqda qo‘llanganda so‘z o‘yinlarini hosil qilishda, o‘quvchilarni fikrlashga jalb etishda muhim o‘rin tutadi.

III bob:

Mahmud Toir lirikasida o‘z va o‘zlashgan qatlam, eskirgan va tarixiy so‘zlarning ishlatilishi

Ma'lumki, har qanday tilda o'zga lisonlarning leksemalari uchraydi. Ikki xalq yoki millat vakillari o'zaro turli munosabatlarda (iqtisodiy, madaniy, siyosiy) bo'lar ekan, ularning tillari ham shunday munosabatlar natijasida o'zaro aloqaga kirishadi, bir-birlariga ozmi-ko'pmi ta'sir ko'rsatadi. Bir tilga ikkinchi til so'zlarining kirishi bir tarafdin ular orasidagi munosabatni ta'minlashga xizmat qilsa, ikkinchidan u tilni rivojlantirishga ham yordam beruvchi asosiy vosita sifatida katta o'rin tutadi.

O'zbek xalqi, ma'lumki, eng qadimgi urug' va qabilalaridan o'sib chiqqan, demak uning tili ham shu urug' va qabilalar tili negizida rivoj topgan. Markaziy Osiyodagi turli tarixiy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, xususan, arablar, mo'g'ullar, ruslar istilosi, tojik, turkman xalqlari bilan qo'shnichilik munosabatlari ham o'zbek tili taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Anashu tarixiy jarayonlar nuqtai nazaridan qaralganda hozirgi o'zbek tilining boyligida ikkita yirik qatlam- o'z va o'zlashgan qatlamlar borligi ma'lum bo'ladi.

O'z qatlam deganda aslan shu tilniki bo'lgan so'zlar va shular asosidagi yasalishlar, shuningdek o'z affiks bilan boshqa til so'zlaridan yasashlar tushuniladi. O'z qatlamga xos so'zlar bilan o'zlashgan qatlamga xos so'zlarni

o‘zaro farqlash hamma vaqt yengil bo‘lavermaydi. Bularni o‘zaro farqlashda so‘zning semantik, morfologik, fonetik belgilarini hisobga olib ish ko‘riladi.

Semantik belgilari: umumturkiy so‘zlarning aksariyati ko‘p ma’nolidir: bosh-

- 1) “odamning boshi”;
- 2) “ko‘chaning boshi”;
- 3) “ishning boshi”.

Morfologik belgilari:

1) umumturkiy so‘zlar hozirgi o‘zbek tilining barcha so‘z turkumlarida uchraydi;

2) turlanadi va tuslanadi;

3) o‘zak va affiks morfemalar erkin va standart bo‘ladi: ko‘zim, ko‘zing, ko‘zi;

4) so‘z tarkibida prefikslar qo‘llanmaydi.

Fonetik struktura jihatdan o‘z qatlamiga xos so‘zlarning asosiy belgilari deb quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- 1) o‘zbekcha tub negizlar asosan bir bo‘g‘inli va ikki bo‘g‘inli bo‘ladi; uch bo‘ginli tub negizlar juda oz.
- 2) bir bo‘g‘inlilarda “undosh+unli+undosh” tipi asosiy o‘rinni egallaydi. Ikkinchi o‘rinda “unli+undosh” tipi turadi. “undosh+unli” tipi esa juda oz.
- 3) ikki bo‘g‘inli so‘zlar ko‘pincha ochiq bo‘g‘inlardan tuzilgan bo‘ladi.
- 4) o‘zbek so‘zlari r, l, v, h tovushlari bilan boshlanmaydi.
- 5) o‘zbek so‘zlarida “h” bo‘g‘iz tovushi qatnashmaydi. (undov va mimemalardan tashqari)
- 6) so‘z oxiri e, o, u tovushi bilan tugamaydi (undov va mimemalardan tashqari).
- 7) o‘zbek so‘zlarida odatda sof cho‘ziq o unlisi bo‘lmaydi.
- 8) birinchi bo‘g‘indan keyingi bo‘g‘inlar hech vaqt unli bilan boshlanmaydi.
- 9) Bo‘g‘in boshlanishida, ko‘pincha , bo‘g‘in oxirida ham, ikki va undan ortiq undosh qatorasiga kelmaydi (ost, ust kabi bir nechta so‘z bundan mustasno)²¹.

Yuqorida sanalganlarning aksi o‘zlashgan so‘zlarning asosiy belgilari deb qaraladi.

²¹ Tursunov U, Muxtorov O, Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. 1965. 151-152-b.

O‘zlashgan qatlam-o‘zbek tili leksikasining boshqa tillardan o‘zlashtirilgan leksemalardan iborat qismi. Masalan, maktab (arabcha), daraxt, gul (fors-tojikch), axta, bahodir(mo‘g‘ulcha), afandi (turk), ravshan (so‘g‘dcha), traktor, avtobus (ruscha baynalminal) va boshqalar. Bu qismda arab, fors tojikcha va rus tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlar ko‘pchilikni tashkil etadi.

Fors-tojik tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlar. Tarixchi B. G‘ofurovning yozishicha, o‘zbek va tojik xalqlari o‘rtasidagi yaqinlik millodiy VI asrda boshlangan. O‘zbek va tojik xalqlari juda uzoq davrlardan beri yonma-yon yashab bir-birlariga doimo xo‘jalik, iqtisodiy –ijtimoiy va madaniy munosabatlarda bo‘lib kelganlar.

Hozirgi o‘zbek tilida fors –tojik tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlar orasida otlar (sartarosh, bazm, barg), sifatlar (badbo‘y, badjahil, ozoda), ravishlar (banogoh, do‘stona, tez), bog‘lovchilar (chunki, yoki, agar), yuklamalar (xo‘sh, xudi), modal so‘zlar (chunonchi, binobarin), undovlar (balli, dod) uchraydi.

Fors-tojik tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlarda:

- a) so‘z oxirida undosh tovushlarning qatorlashib kelishi ancha keng tarqalgan: g‘isht, go‘sht;
- b) kuchsiz lablangan **o** unlisi so‘zning barcha bo‘g‘inlarida qo‘llaniladi: ohang, nobud, bahor.

Shuningdek, fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga bir qator prefiks va suffiks o‘zlashgan:

Prefikslar- *be-,ba-, no-, ham-, kam-*; suffikslar- *-kor, -zor, -xo‘r, -parvar, -kash, -paz* va boshqalar. Ular dastlab fors-tojik so‘zlari tarkibida qo‘llangan, keyinchalik o‘zbek tilining so‘z yasovchi affikslarning qatoridan o‘rin olib, yangi so‘zlarning yasashida ishtirok etgan: kamsuqum, bebosh, barkamol, hamyurt.

Arab tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlar

Bunday so‘zlarning o‘zlashtirilishi VIII asrdan boshlanib IX-X asrlarda ancha faollashgan. Arab tilidan so‘z o‘zlashtirishga olib kelgan omillar ichida quyidagilar muhim rol o‘ynagan:

- a) arablar istilosi;
- b) islom dinining keng tarqalishi;
- c) arab yozuvining qo‘llana boshlanganligi;

- d) madrasalarda arab tilining o‘qitilish;
- e) turkiy-arab ikki tilligining tarkib topganligi;
- f) olim-u fuzalolarning arab tilida ijod qilganligi.

Arab tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlarning fonetik, semantik va morfemik tarkibida quyidagi xususiyatlar borligi ko‘zga tashlanadi:

1. So‘z tarkibida ikki unlining yonma-yon kelish holati uchraydi: mutolaa, oila.
2. Ra’no, da’vo , ta’na, e’lon kabi so‘zlarda ayn tovushidan oldingin unli kuchli va biroz cho‘ziq aytiladi.
3. Jur’at, sur’at, bid’at, qal’a, kabi so‘zlarda bo‘g’inlar ayirib tallaffuz qilinadi.
4. Semantik jihatdan: ko‘proq diniy, hissiy, axloqiy, ilmiy, ta’limiy va mavhum tushunchalar ifodalanadi.
5. So‘zlarning lug’aviy va gramatik shakllari flektiv xarakterda bo‘lib, o‘zbek tilida morfemalarga ajralmaydi: ilm, muallim, olim.

Mahmud Toir she’riyatini kuzatar ekanmiz, uning nafaqat, o‘z qatlam, balki o‘zlashgan qatlam, asosan arabcha, fors-tojikchikcha so‘zlardan mahorat bilan foydalanganining guvohi bo‘lamiz. Shu bois biz shoirning so‘zlardan qay darajada foydalana olganini ko‘rish uchun tahlillarni jadval asosida berishga harakat qildik.

Sabrning sarg’aygan suvratlarida,
 Hayoning xushdan xush iffatlarida,
 Hijronning kuydurgan kulfatlarida,
 Muhabbat yashaydi, muhabbat yashar. (228-b.)

N	O‘zbekcha	Arabcha	fors-tojikcha	Ma’nosi
Sabr		+		Chidam, bardosh
Sarg’aygan	+			Sariq rangga kirmoq
Suvrat		+		Ko‘rinish, timsol. Shoir bunda surat so‘zini o‘rniga badiiylikni oshirish uchun qo‘llagan

Hayo		+		“Uyat, sharm, nomus” ²² .V jild /475-b.
Xush			+	“Yoqimli, yaxshi” IV jild/ 430-b.
Iffat		+		“Bokiralik, pokizalik, nomus, hayo” II jild / 245-b.
Hijron		+		“Ayriliq, judolik,firoq”V jild /480-b.
Kuydurgan	+			Ko‘chma ma’noda “alam, iztirob chekmoq” II jild /424-b.
Kulfat		+		“Qiynaladigan, azob beradigan holat” II jild /420-b.
Muhabbat		+		“Sevgi, ishq, bog’lanish” II jild/ 662-b.
Yashamoq	+			Ko‘chma ma’noda “mavjud bo‘lmoq, bor bo‘lmoq, saqlanmoq” ma’nolarda kelgan V jild/ 126-b.

Ushbu she’rida shoir bir xil tovush bilan boshlanadigan soʻzlarni qoʻllash orqali betakror ritm va obrazlilikka erishgan. Shuningdek, satrlardan asosan, oʻzlashgan qatlam soʻzlaridan foydalangan. Ya’ni, 11ta soʻzdan 3ta oʻzbekcha, 1ta forscha va 7ta arabcha soʻzlardir.

Yongan yuragimning yog’dusi bilan,
 Kuygan koʻzlarimning koʻzgusi bilan,
 Dunyoning seningdek ohusi bilan,
 Yoʻllarni yig’latib kulublar ketsam,
 Ayyor yuragini yuliblar ketsam. (“Ketsam” 224-b.)

Bunda shoir oshiq holatini ta’riflarkan, tilimizning nechog’li boy, latif ekanligini ko’rsatib bera olgan. Shoir qoʻllagan 16 soʻzdan 13tasi oʻzbekcha, faqat 3tasi- dunyo, ag’yor- arabcha, ohu- fors-tojikcha ekanligi fikrimiz isbotidir.

²² Oʻzbek tilining izohli lug’ati. V jild.Toshkent,2006-2008.Izohlar shu lug’atdan olindi.

Shoir satrlarni marvarid shodasidek tizgan. Bu holni biz keyingi satrlar misolida ham ko‘rishimiz mumkin:

Sog‘inch so‘zi sochlarga erta yog‘gan qormikan,

Oshiqqa atalgani azaldan ozormikan,

Ishq so‘zini ishratiga qul bo‘lmagan bormikan.

(“Jilmaysa jamolingiz” 230-b.)

N	O‘zbekcha	Arabcha	fors-tojikcha	Ma‘nosi
Sog‘inch	+			“Sog‘inish tuyg‘usi” III jild / 600-b.
So‘z	+			“Mustaqil ma‘noga ega bo‘lgan eng muhim til birligi, gapning qurulish materiali” III jild /608-b.
Soch	+			“Odamning bosh terisida o‘sadigan qil tolalar qoplamasi va ularning har biri” III jild/ 557-b.
Erta	+			“Odatdagi me‘yoriy vaqtdan ancha oldin, barvaqt” V jild / 51-b.
Yog‘gan	+			“Yog‘ish turi” II jild/ 57-b.
Qor	+			“Suv zarralari asosida yuzaga keladigan yog‘in turi”V jild 335-b.
Oshiq		+		“Sevuvchi, sevib qolgan, xushtor, muxlis” III jild/ 170-b.
Atalgan	+			“Biron kishiga mo‘ljallangan” I jild /113-b.
Azal		+		“Ibidosi yo‘qlik, boshlanishi noma‘lum zamon” I jild/ 47-48b.

Ozor			+	“Ranj-alam, xafalik” III jild/ 96-b.
Ishq		+		“Sevgi-muhabbat, oshiqlik” II jild/ 261-b.
Ishrat		+		“Biror kimsa bilan do‘stlashish, aysh-ishrat qilish” II jild 259-b.
Qul bo‘lmagan	+			“Ozod, hur”
Bor	+			“Qo‘lda, ixtiyorida yoki umuman, voqelikda mavjud bo‘lgan: mavjud” I jild/ 312-b.

Mahmud Toir-nozikta’b ijodkor. Uning she’rlarida o‘zgacha ohang va latiflik bor. Shoir har bir so‘zga yangi bir ma’no yuklashga, tilimizning imkoniyatlarini ko‘rsatishga harakat qilgan.

Asrlar davomida tillar bir-biridan so‘z olib, so‘z berib shakllanib kelmoqda. Bu ham bir imkoniyat. Ushbu imkoniyatdan samarali foydalanib betakror asarlar yaratayotgan, xalq qalbini, orzu-armonlarin kuylayotgan ijodkor Mahmud Toirdir.

Til tizim sifatida uzluksiz harakatda, rivojlanishda bo‘lib turadi, bu uning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqadi: til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur o‘rtasidagi ikki tomonlama aloqadorlik ularning bir-biriga ta’sirini belgilaydi-jamiyatda bo‘lib turadigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ilmiy texnikaviy taraqqiyot, iqtisodiy-ma’rifiy sohalardagi islohatlar tilning lug’at boyligida yangi-yangi so‘z va atamalarning yuzaga kelishini, ayni paytda ma’lum so‘z-leksemaning eskirib tarixiy katekoriyaga aylanishini taqozo qiladi. Bu jarayon tilning lug’at boyligida istorizm, arxaizm va neologizm kabi leksik birliklarni yuzaga keltiradi.

Arxaizm

Eskilik bo'yog'i bor til birligi **arxaizm** deyiladi (yunoncha archaios- "qadimgi"). Arxaizm lug'aviy birliklar doirasida ham, grammatik hodisalar doirasida ham mavjud. Shunga ko'ra arxaizm 2ga bo'linadi.

1. Lug'aviy arxaizm-lug'aviy birliklardagi turi
2. Grammatik arxaizm-grammatik hodisalardagi turi.

Leksik arxaizmlar-hozirgi paytda mavjud voqelikning eskirgan nomi yoki aksincha, hozirgi tilda mavjud bo'lgan leksimaning eskirgan ma'nosi. Masalan, qo'shin ("askar", "armiya") –cherik ((“askar”, “armiya” tushunchasining eskirgan nomi, arxaizm-leksema).

Arxaizmning tug'ilish sababini izohlash ko'p hollarda qiyin bo'ladi. Lug'aviy birlik biror jihatdan eskirib o'z o'rnini boshqa bir lug'aviy birlikka bo'shata borishi natijasida arxaizm paydo bo'ladi. Bu jarayon turli-tuman sabablar bilan voqe' bo'ladi. Arxaizm umuman sinonimiyaga asoslanadi. Shunga ko'ra arxaizmning paydo bo'lishini izlashda sinonimiya munosabatidagi lug'aviy birliklarning holatiga, taraqqiyotiga suyanish lozim. Bunda asosan, quyidagicha sabablar ko'rsatiladi.

1. Sinonimlar nutqda bir xil ishlatilmasligi tufayli ulardan ba'zilar arxaizmga aylanadi: avvallari ko'p yoki boshqalari bilan teng ishlatilgan lug'aviy birlik o'z sinonimlariga qaraganda nutqda oz ishlatiladi, arxaik tus oladi.
2. Leksema o'zlashtirish tufayli voqe' bo'lgan sinonimlar tilde o'zaro bir xil mavqe'ga ega bo'lib qolavermaydi. Ba'zan shulardan biri ikkinchisining o'rnini bosa boradi, o'z o'rnini bo'shata borgan lug'aviy birlik arxaizmga aylanadi.
3. Polisemantik leksemaning o'z sinonimi bor sememasi bir tomondan, shunday sinonimiyaning mavjudligi ta'sirida, ikkinchi tomondan shu polisemantik leksimaning boshqa sememasi ta'sirida o'z o'rnini bo'shatib boradi. Bu bilan sememaning ham, sinonimning ham mavqeyi kuchayadi.

Arxaizm tilda avvalo uslubiy figura sifatida yashaydi va shunga ko'ra arxaizmda quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

1. Nutqqa ko'tarinki, nazokatli ruh berish uchun. Bunday vazifa bilan arxaizm, asosan, she'riy asarlarda ko'p ishlatiladi.
2. Nutqqa hazil-mutoyiba, kinoya, masxara ruhini berish uchun. Arxaizmda bunday foydalanish avvalgisiga nisbatdan kam uchraydi.

Mahmud Toir ham o‘z ijodida arxaizmlardan foydalanib, go‘zal tashbehlar, nazokatli satrlar yaratgan. Jumladan:

Yuragimning oynasiga yog‘ar yomg‘ir,
Bir sanamning siynasiga yog‘ar yomg‘ir.
Quyosh tutgil, nurdan **chog‘ir**, desam hamki,
Yog‘ar yomg‘ir, yog‘ar yomg‘ir, yog‘ar yomg‘ir.

(“ Yomg‘ir” 23-b.)

Shoirning mahorati satrlarda aks etib turibdi. She‘rni o‘qiyotganingizda beixtiyor ko‘z oldingizda yomg‘ir va go‘zal qiz gavdalanadi. Shoir “chog‘ir” arxaizmni qo‘llash bilan satrlardagi badiiylik va ta’sirchanlik kuchaygan. Aslida “chog‘ir”-“may, sharob”demakdir. Lirik qahramon quyoshga murojaat qilib, nuridan chog‘ir (may) tutishini ya’ni, olamga o‘z nurini sochishini so‘raganda ham yomg‘ir yog‘averadi.Bu tasvirda ijodkorning tasavvuri nechog‘li boyligini ko‘rishimiz mumkin.

Zog‘lar kular **andalib**dan,
Chunki uning dili giryon,
Andalibman, g‘unchadagi
Ibolarga qo‘l cho‘zgayman.

(“Ey do‘st” 71-b.)

Ushbu bandda qo‘llanilgan *andalib* arxaizmi arabcha “**bulbul**”demakdir.Shoirning bu so‘zdan foydalanishi orqali baytning badiiyligi oshgan. Shuningdek, ijodkor falsafiy fikrlarni ifoda etishda bu tasvirdan ramz sifatida foydalanganing guvohi bo‘lamiz. Lirik qahramon zog‘lar andalibning ustidan kulishlari, sababi uning qalbi ishqda giryonligini ta’kidlab o‘zini ham andalibga qiyos etadi.

Allohdan men yolg‘iz visol tilayman,
G‘uncha **dudog**‘ingdan men bol tilayman,
Sensiz kunlarimga zavol tilayman,
Parq-u bolishingda men shirin tushman.

(“Kulging” 39-b.)

Muhabbat- dunyodagi eng go‘zal tuyg‘u, shoir oshiq holatini chiroyli aks ettira olgan. U “lab” so‘zining o‘rniga dudoq, ya’ni arxaik sinonimni qo‘llagan.

Arxaiklashish hodisasi tilning grammatik birliklarida, xususan, affiksial morfemalarda va shu morfemalar ishtirokida shakllangan grammatik formalarda ham uchraydi. Masalan, fe’lning sifatdash shakllari qadimgi turkiy tilda “-mish”, “-duq”, “-duk” morfemalari vositasida yasalgan. Hozir esa bu funksiyada asosan, “-gan” affiksi qo‘llaniladi. Ushbu morfemalar grammatik arxaizmga aylangan. Bugungi kun she’riyatida ham grammatik arxaizmlar muhim ahamiyatga ega.

Andijonda ot minib tur**mish** Bobur,
O‘z hokin tuprog‘ida ko‘r**mish** Bobur,
Isloming qodirdir, Isloming botir,
Noringni qadirla, nor bilgin, elim,
Qoringa qullikni or bilgin, elim.

(“Qadr” 62-b.)

Shoir bunda arxaik –mish affiksidan satrlarga tarixiylik bo‘yog‘ini bera olishi uchun foydalangan.

Ba‘zan so‘zning o‘zi yoki uning ma’nolaridan biri emas, balki talaffuzi eskiradi, natijada shu so‘zning eskirgan talaffuz varianti, demak leksik- fonetik arxaizm yuzaga keladi. Talaffuzdagi arxaiklashish leksimalardagina emas, balki leksik manoga ega bo‘lmagan so‘zlarda (olmoshlarda, ko‘makchilarda) ham uchraydi. Masalan: **u, bu, shu, o‘sha** kihilik va ko‘rsatish olmoshlarining hozirgi fonetik-orfoepik shakllari –ul, bul, shul ,o‘shal, o‘shul (shu olmoshlarning eskirgan talaffuz variantlari). Masalan:

Bu kecha shunday kecha, ko‘nglim daryodir manim,
Qora tun ,qaro kulbam kundan ziyodir manim,
Shul sanamga, yoronlar, jonim fidodir manim,
Bu kecha shunday kecha, ohim sadodir manim.

(“Bu kecha” 104-b.)

Mahmud Toir bu o'rinda **shu** ko'rsatish olmoshining fonetik-arxaik shakli "shul" so'zini qo'llagan. Bu so'z esa bayt ta'sirchanligini oshiroishga xizmat qilgan. Tilda har bir hodisaning o'z o'rnini bor, undan to'g'ri va o'rinli ona tilining imkoniyatlaridan samarali foydalangan ijodkorgina haqiqiy so'z ustasidir.

Istorizm

O'tmish voqeligini nomlash zaruriyati bilan hozir ishlatiladigan eski lug'aviy birlik istorizm deyiladi (yunoncha historia-"tekshirish, tadqiqot"). Masalan, qozi, ellikboshi, to'ra kabi.

Istorizmdan anaxronizmni farqlash kerak. Anaxronizm bir davrga xos voqelikni nomlaydigan lug'aviy birlik bilan boshqa davr voqeligini nomlab yuborish hodisasidir. Bunday xato ko'pincha o'tmish haqida yozilgan asarlarda uchraydi.

Arxaizm va istorizm o'zaro keskin farq qiluvchi hodisalardir. Shunga ko'ra ularni birgalikda emas alohida-alohida baholash ma'qul. Bular orasida asosiy farqlar quyidagicha:

1. Arxaizm-mavjud voqelikni nomi. Istorizm esa o'tmish voqeligining nomidir.
2. Arxaizm-mavjud voqelikni o'zgacha nomidir. Istorizm esa o'tmish voqeligining nomi bo'lib, hozirgi tilda uning o'rnini bosa oluvchi lug'aviy birlik yo'q.
3. Arxaizm o'zi nomlayotgan voqelikni anglatuvchi lug'aviy birlik bilan yonma- yon yashaydi. Istorizm esa odatda o'zi anglatgan o'tmish voqeligining yagona nomi bo'ladi.
4. Arxaizm tilning tasvirlanayotgan davri lug'atiga xos bo'ladi. Istorizm esa tilning tasvirlanayotgan davri lug'atiga xos bo'lmaydi, balki o'tmish lug'atiga xos birlikdan vaqtincha foydalanish voqe' bo'ladi.
5. Arxaizm lug'aviy birliklarining o'zaro ma'no munosabati bilan bog'liq holda baholanadi. Istorizmda esa bu yo'q.
6. Arxaizm bugungi kunda odatdagi deb qaraluvchi lug'aviy birliklarning uslubiy sinonimi bo'ladi. Istorizmda esa bunday holat yo'q.

7. Arxaizm sinonimiya bilan bog'liq bo'lganligi sababli bir sinonimik qatorga mansub hodisalarga asoslanadi, nutqda shu sinonimlardan eng o'rinlisi tanlab ishlatiladi. Istorizm esa yakka bo'ladi, keragida shu lug'aviy birlikning o'ziga murojat qilinadi.
 8. Arxaizm, nominativ vazifadan, davrni gavdalantirish vazifasidan tashqari stilistik figura bo'lib xizmat qiladi. Istorizm esa odatda stilistik figura bo'lib kelmaydi.
 9. Arxaizmning paydo bo'lishi lug'aviy birliklarning yangicha uslubiy munosabatga kirishuviga bog'liq: bunday munosabat natijasida lug'at hech narsa yo'qotmaydi, ayni bir voqelikni nomlovchi lug'aviy birliklardan ba'zida eskilik bo'yog'i hosil qilinadi. Istorizm esa lug'atdan ma'lum birlikning tushib qolish natijasidir: voqelikni yo'qolishi shu voqelikning nomi bo'lgan birlikni kerksiz qilib qo'yadi.
 10. Arxaizm har bir til uchun xususiy bo'ladi. Istorizm esa tillararo ma'lum bir umumiylik ko'zga tashlanadi.
 11. Arxaizm asosan, tilning o'z taraqqiyot qonunlari bilan izohlanuvchi hodisadir. Istorizm esa birinchi galda jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy taraqqiyoti tarixiga ko'ra izohlanadi.
 12. Arxaizm va istorizmning lug'at boyligiga odatdagi lug'aviy birlik sifatida qaytishi juda oz uchraydi. Shunda ham arxaizmning qaytishi bilan istorizmning qaytishi mohiyatdan keskin farq qiladi: arxaizm faqat eskilik buyog'ini yo'qotadi-yu odatdagi lug'aviy birlikka aylanib ketadi, leksik katta o'zgarish sodir bo'lmaydi; istorizmning qaytishida esa uning leksik ma'nosi tubdan o'zgaradi, lug'aviy birlikma'no jihatdan yangilanadi.
- Xullas, davrni gavdalantirish vazifasini hisobdan chiqarib tashlasak, arxaizm bilan istorizm orasida umumiylik qolmaydi. Haqiqatda bulardan biri eskilik bo'yog'i bilan hozirgi tilda yashayolga lug'aviy birlikdir, ikkinchisi esa tilning o'tmish tarixiga oid lug'aviy birlik bo'lib, hozir o'tmish voqeligini nomlash zaruriyati tufayli ishlatiladi.²³

²³ Tursunov U, Muxtorov J, Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. 1992. 163-164-b

Istorizmlar, asosan, oʻtmish voqeligini atashda ishlatiladi. Istorizmlardan tarixchilar, olim va yozuvchilar tarixiy voqea va hodisalarning real tasvirini berish, badiiy asarga tarixiy ruh berish uchun foydalanadilar. Mahmud Toir esa istorizmlardan obrazlilikka erishish uchun foydalangan:

Oqibat- joningda koʻkargan bir gul,
Jaholat- jismingda shaytonga bir **qul**,
Oʻtgan kunlaringni unutma butkul,
Havasda kamolga yetganing yaxshi,
Hasaddan oʻzni pok etganing yaxshi!

(“Sabr” 121-b.)

Shoir sabr haqida soʻz yuritar ekan, insonlar oʻrtasidagi mehr-oqibatni inson ruhidagi chechakka, jaholatni inson jismidagi shaytonnig quliga mengzaydi. Ushbu satrlardagi istorizm- “qul” soʻzidir, Aslida bu soʻz “eksplutatorlik jamiyatining ilk davrlarida xususiy mol-mulk qatori olib sotilgan, butunlay xoʻjayinga qaram boʻlgan hech qanday mol-mulkka ega boʻlmagan xizmatkor” maʼnosini anglatadi, bu oʻrinda koʻchma maʼnoda kelib “biror narsaga qattiq berilgan, mute” maʼnosini ifodalab kelmoqda.

Nolam toshni teshdi-yu bandasiga yetmadi,
Netay kulgum bir irmoqning xandasiga yetmadi,
Bor davlatim **qalandarning jandasiga** yetmadi.

(“Men vaslin istagan” 107-b.)

Lirik qahramon bu oʻrinda nolasi toshni larzaga solsa-da, insonga yetmagani, kulgusi irmoq xandasichalik boʻlmagani, bor davlati qalandar jandasiga yetmagandan oʻkinadi. Bu oʻrinda ikki ta istorizm ishtirok etgan:

1. Qalandar (arabcha) – “diniy gʻazallarni oʻqib, musulmon dinini targʻib qilib darbadar kezuvi, goʻshanishilikka berilgan soʻfiy”.
2. Janda (fors-tojikcha)- “darvesh va qalandarlarning uloq –quroq toʻni”.

Koʻzimni uqqani tilmoch kerakmas,
Bir qalbga gul ekkani **omoch** kerak mas,
Qozoningiz kuymasin, qirmoch kerakmas,
Oshiqingiz kuygani yetmaydimi, yor.

(“Tilmoch kerakmas” 219-b.)

O‘zgacha tashbehlar va o‘ziga xos tasvir. Bu aynan Mahmud Toirga xos. Ijodkor oshiq holatini chiroyli tasvirlagan. Bunda u faqat istorizmdan (omoch) emas, u bilan birga arxaizm (tilmoch) dan ham mohirlik bilan foydalangan. Aslida **omoch**-“ulov qo‘shib yer haydaladigan metal tishli qadimgi eng oddiy yog‘och yoki temir asbobning nomidir”.

Demak, she‘riyatda arxaizm va istorizmlar muhim ahamiyatga ega. Ular tufayli nutq yanada jonlanadi. Go‘zal obrazlilikka erishiladi.

Xulosa

O‘zbek tili leksikasi juda boy. Unda serqirra ma’noga ega bo‘lgan polisemantik va ma’nodosh, zid ma’noli va shakldosh, emotsioanal-ekspressiv bo‘yoqdor so‘zlar borki, ular nutqni obrazli va jozibador etishga xizmat qiladi. Ona tilimizning imkoniyatlarida foydalanish, go‘zal badiiy tasvirlar yaratish ijodkoning so‘z qo‘llash mahoratiga bog‘liq. O‘zbek she‘riyatining zabardast vakili Mahmud Toir o‘zining lirikasi betakror satrlari orqali xalqimiz qalbidan joy oldi. Shoir so‘zlarni o‘z ma’nosida ishlatish bilan birga biror voqea-hodisani, ichki kechilmalarning mohiyatini yaqqolroq va aniqroq ochib berish uchun so‘zlarning turli ma’no tovlanishlariga murojaat qiladi.

Ushbu bitiruv malakali ishida biz Mahmud Toir she‘riyatining leksik xususiyatlarini tahlil qildik. Bitiruv malakali ishi kirish, III asosiy bob , xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I bob “Mahmud Toir she‘riyatida ko‘chma manoli so‘zlarning qo‘llanilishi” deb nomlanadi. Bu bobda ijodkor satrlarda qo‘llagan metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlikning ahamiyati ularning stilistik vazifalariga to‘xtab o‘tildi. Shoir lirikasida lingvistik va poetik metaforaning eng yaxshi namunalarini ko‘rish mumkin. Masalan: Shirin tush, sovuq xabar lingvistik metaforalardir. Polisemantik so‘zlar nutqni jozibador va obrazli etishda muhim ahamiyatga ega. Ijodkor go‘zal tasvir yaratishda metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlikdan samarali foydalangan.

II bob “Ijodkor ijodida soʻzning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlarining ifodalanishi ” deb nomlandi. Soʻz shakl va maʼno munosabatiga koʻra 4 ga boʻlinadi: sinonim, antonim, omonim, paronim. Oʻzbek tili nutqda nozik maʼno oʻttenkalarini hamda rang-barang stilistik boʻyoqlarni bera olgan sinonimlarga boy. Shuning uchun ham badiiy adabiyotda undan ijodkorlar unumli foydalanishadi: quvonch, shodlik, xursandchilik, sevinch. Mahmud Toir ham sinonimiya hodisasidan mahorat bilan foydalangan. Sinonimlar tufayli uslub rangdor boʻlishiga, qaytariqlarning oldi olinishiga erishilgan. Antonimlar maʼnoni kuchaytirishda, fikrni yorqin ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Shoir ijodida ham antonimlar, kontekstual antonimlar koʻp uchraydi: havas-hasad, qimmat-arzon. Shuningdek, zidlik munosabatining eng yorqin koʻrinishi oksimoron ham uchraydi. Omonimlar va paronimlar sheʼriyatda qoʻllangandasoʻz oʻyinlarini hosil qilishda, tasvirni betakror ranglarda jilolantirishga xizmat qiladi, oʻquvchilarni fikrlashga jalb etadi. Yosh – omonim.

Yosh I – “qattiq ogʻriq, qaygʻu yoki kuchli sevinch, shodlik kabilar natijasida yosh bezlaridan ajralib chiqadigan shoʻr suyuqlik”

Yosh II – “tugʻilgan vaqtdan boshlab yashab oʻtkazilgan yillar jami”.

Shoh- shox – paronim: shoh – “podshoh, hukmdor” ; shox – “butoq, shoxcha”.

III bob “Mahmud Toir lirikasida oʻz va oʻzlashgan qatlam, eskirgan, tarixiy soʻzlarning ishlatilishi” deb nomlanadi. Maʼlumki, har qanday tilda oʻzga lisonlarning leksemalari uchraydi. Bir tilga ikkinchi til soʻzlarining kirishi bir tarafdin ular orasidagi munosabatni taʼminlashga xizmat qilsa, ikkinchidan u tilni rivojlantirishga ham yordam beruvchi asosiy vosita sifatida katta oʻrin tutadi. Mahmud Toir ijodida ham oʻz va oʻzlashgan qatlam: arabcha, forstojikcha soʻzlar uchraydiki, ular tufayli misralar rang-barang, serqirra va betakror. Shuningdek, shoir misralar fonetik jihatdan ohangdor, maʼno jihatdan serqirra boʻlishi uchun shoir arxaizmlardan ham foydalangan: dudogʻ-lab, andalib – bulbul, sayyod- ovchi.

Ona tilini oʻrganish nihoyatda dolzarb vazifa. Inson tafakkurining erishgan eng yuksak yutuqlari, eng chuqur bilimlari va gʻoyat otashin hislar, agar

ular soʻz vositasi bilan aniq va ravshan ifoda qilinmasa, odamlar uchun nomaʼlumligicha qolaveradi.

Mahmud Toir ona tilimizning imkoniyatlaridan samarali foydalanib, mahorat bilan qalam tebratayotgan ijodkordir. Teran dunyoqarashi, har bir soʻzdagi maʼnoni his etgan holda toʻgʻri qoʻllash mahorati tufayli shoir lirikasi ajib bir goʻzallik kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. **Karimov I.** Yuksak maʼnaviyat- yengilmas kuch. “Maʼnaviyat”. Toshkent Toshkent. 2010.
2. **Karimov I.** Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. “Oʻzbekiston”. Toshkent. 2011.
3. **Oʻzbek tilining izohli lugʻati.** V jild. Toshkent. 2006-2008.
4. **Asqarova M, Yunusov R, Yoʻldoshev M, Muhammedova D.** Oʻzbek tili praktikumi . Toshkent. 2006.
5. **Aliqulov T.** Metonimiya va polisemiya. Toshkent. 1965.
6. **Eshonqulov B.** Arabcha lugʻaviy oʻzlashmalarning omonimiyaga munosabati. “Oʻzbek tili va adabiyoti” jurnali. Toshkent. 1999/3.
7. **Jamolxonov H.** Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent. 2010.
8. **Mahmud Toir.** Mendan meni soʻrama. “Sharq” nashriyoti. Toshkent. 2007.
9. **Mahmud Toir.** Saylanma. “Oʻqituvchi”. Toshkent. 2008.
10. **Mirtojiyev M.** Oʻzbek tili semasiologiyasi. Toshkent. 2010.
11. **Mengliyev B, Xoliyorov Oʻ.** Oʻzbek tilidan universal qoʻllanma. Toshkent. 2008.
12. **Murodova N.** Navoiy viloyati oʻzbek shevalarida fors-tojikcha oʻzlashmalar. “Oʻzbek tili va adabiyoti” jurnali. Toshkent. 2002/3
13. **Rahmatullayev Sh, Mamatov N, Shukurov R.** Oʻzbek tili antonimlarning izohli lugʻati. “Oʻqituvchi”. Toshkent. 1989.
14. **Rahmatullayev Sh.** Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati. “Oʻqituvchi”.

Toshkent.1984.

15. **Lapasov J.** Badiiy matn va lisoniy tahlil. Toshkent.1995.
- 16.**Sayfullayeva va boshqalar.** Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent.2009.
- 17.**Suvonova R.** Metaforalar tasnifiga doir. “O‘zbek tili va adabiyoti”
jurnali.Toshkent. 2010/6
- 18.**Suvonova R.** So‘z o‘zlashtirish va metonimiya. “Ozbek tili va adabiyoti”
jurnali. Toshkent.2006/6
- 19.**Tursunov U, Muxtorov J, Rahmatullayev Sh.** Hozirgi o‘zbek adabiy tili.
Toshkent.1992.
- 20.**Usmonov S.** Metafora . “O‘zbek tiliva adabiyoti”urnali.Toshkent.1964.
- 21.**Shukurov O, Boymatov B.** O‘zbek tilining ma’nodosh so‘zlar lug’ati.
Toshkent. 2009.
- 22.**Shomaqsudov A, Rasulov I, Qo‘ng‘urov R, Rustamov H.** O‘zbek tili
stilistikasi. Toshkent.1983.
- 23.**Shodiyev F.**O‘zbek tiliga o‘zlashgan bir bo‘g‘inli so‘zlar va ularning
hosilalari talqini. “O‘zbek tili va adabiyoti”urnali.1998/5
24. **Rahmatullayev Sh.** Hozirgi adabiy o`zbek tili. T., 2006.